

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5141100 - o`zbek tili va adabiyoti bakalavr ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi
Davlatmuratova Nodira Bahodirovnaning

**«UMUMTA`LIM MAKTABLARDA BEHBUDIY HAYOTI VA IJODINI
O`RGATISHNING SAMARADOR USULLARI»
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

NUKUS - 2011

Malakaviy bitiruv ishi O`zbek adabiyoti kafedrası yig`ilishining 2011-yil
«___» _____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	f.f.n., dots. K.Tashanov
Kafedra mudiri:	f.f.n. S. Matyakupov
Ilmiy rahbar:	f.f.n. S. Matyakupov

Davlatmurotova Nodira Bahodirovnaning «Umumta`lim maktablarda behbudiy hayoti va ijodini o`rgatishning samarador usullari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («___%») qo`yildi.

«___» _____ 2011-yil

DAK kotibasi:	S. Bekchanova
---------------	---------------

M U N D A R I J A

KIRISH.....	4
ASOSLAMA.....	6
I BOB Behbudiy – jadid adabiyotining asoschisi	
1.1. Behbudiy va o'zbek dramaturgiyasi.....	8
1.2. «Padarkush» dramasida ilm-ma'rifat g'oyalarining targ'ib etilishi.....	25
II BOB Behbudiy hayoti va ijodini o'rgatish	
2.1. Adabiyot darslarida drama janrini o'rgatish	33
2.2. Behbudiy hayoti va ijodini o'rgatishning samarador usullari.....	44
UMUMIY XULOSALAR.....	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	58

KIRISH

XX asr boshlarida ma'rifat, adabiyot, madaniyat maydoniga dastlabki qadamini tashlab, tez orada katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan ziyolilarimiz qatlamiga mansub buyuk ajdodlarimizdan biri Mahmudxo'ja Behbudxo'ja o'g'li Behbudiybir. Biz Behbudiy shaxsiyatini, uning ijodiy me'rosini o'zbek va butun Turkiston xalqlari madaniyatining buyuk vakili sifatida endigina faqat Istiqlol sharofati bilan o'rganishga kirishdik. Chunki Behbudiy Turkiy xalqlar orasidan yetishgan dastlabki istiqloлча shaxs bo'lib o'zining butun hayoti-faoliyatini mustamlakachilikka qarshi, milliy mustaqillik uchun kurashga bag'ishlagan buyuk bir siymo bo'lganligi sababli qizil imperiya uning nomini qariyb yarim asr davomida tilga olishga qo'ymadi. Behbudiy mahalliy burjuaziya sinfi manfaatlarini himoya qilgan-sho'ro tuzumiga yot kimsa deb sha'niga turli uydurma tamg'alar bosib kelindi. Vaholanki, Behbudiy butun Turon eli xalqlari madaniyati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan buyuk shaxs sifatida tariximizga kirgan va sira o'chmas iz qoldirgan.

Madaniyat tarixi g'oyat keng ko'lamli tushuncha bo'lib, insoniyat ongini shakllantirish va rivojlantirish bobida ilm fanning deyarli barcha sohalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan barcha ilmlar uyg'unlikda yuksalib borib jamiyat taraqqiyotini ta'min etadi. Mazkur jarayon dastlab inson tafakkurini yuksaltirish, ongini ko'tarish, uning qalbiga ham milliy, ham umuminsoniy fazilatlarni chuqur singdirish, o'z vatani, xalqi, tarixi, buguni, ertasi haqida g'amxo'rlik qilish his-tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirish bilan birga qo'shilgan holda davom etadi. Behbudiy ana shu buyuk g'oya va e'tiqodni diliga jo qilib 1900 yillardayoq yetuk olim, pedagog, tarixchi, dramaturg, serqirra ma'rifatchi, jadidchilik harakatining yetakchi arboblardan biri sifatida tarix maydoniga chiqdi. Uning qomusiy olimligi o'tmishdagi buyuklarimiz an'alariga juda munosib bo'lib, XX asr boshlarida ularning ishlarini yangi davrga moslab olib borganligi bilan ham izohlanadi. Abu Ali Ibn Sino, Beruniy va boshqa buyuk ajdodlarimiz singari Behbudiy ham o'z davrining bir qator ilmlarini chuqur egalladi. Til, adabiyot, matematika, jo'g'rofiya, tarix va boshqa fanlar sohasida qator ilmiy ishlar, darslik va qo'llanmalar yaratdi. Bir qator

gazeta va jurnallar tashkil etib o'zi rahbarlik qildi, kitoblar, xaritalar bosib chiqardi, bosmaxona, maktablar ochib ma'rifat tarqatdi. Shunday qilib, butun Turkiston xalqlari ma'naviy taraqqiyoti ustida g'amxo'rlik qilib, bizga boy meros qoldirdi. Behbudiyning xalqimiz tarixiy taraqqiyotidagi mavqeini o'z zamondoshlari yuksak baholaydilar, u haqda ko'plab fikr mulohazalarini juda katta ehtirom bilan bayon qiladilar. Jumladan, Fayzulla Xo'jayev Turkiston jadidchilik harakati tarixini yozganda Behbudiya shunday baho beradi:

«Turkistonning ayrim jadidlari... Buxoro va Turkiston jadid tashkilotlari o'rtasidagi tafovutlarga qaramay bir qancha qulayliklarga erishish uchun butun kuchlarini sarfladilar. Bu borada Mahmudxo'ja Behbudiyning eslamasdan o'tib bo'lmaydi. Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigan kishisi bo'lmasa kerak...»¹

1929 yilda Qozonda bosilib chiqqan «O'zbek adabiyoti» kitobida esa «O'zbek milliy adabiyotining negiz toshini Behbudiya bilan Fitrat qo'yib berdi» degan e'tirofga duch kelamiz. Bu gaplar haqiqat edi.

Mana shunday ziyoli insonlar tomonidan yaratilgan sahna asarlarini umumta'lim maktablarda o'qitish va o'quvchiga tushunarli qilib yetkazib berish o'qituvchidan katta bilim va mahorat talab qiladi.

¹ Fayzulla Xo'jayev «Tanlangan asarlar» 1 tom 84-bet

ASOSLAMA

Milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash jarayoni, mazkur davr adabiyoti ruhi va mazmunini tashkil qildi. Buni adabiyotshunoslik o'tgan asrning 20-yillaridayoq e'tirof etgan edi. Milliy uyg'onish birgina adabiyot doirasida qolgani yo'q, ijtimoiy turmushning barcha qatlamlarini qamrab oldi, uning samarasi bo'lmish mustaqillik uchun kurashga kelib bog'landi.

Milliy uyg'onish mintaqamizda jadidchilik shaklida namoyon bo'ldi va u 20-yillarning o'rtalarigacha davom etdi. 1926-yildan sovetlar unga qarshi keng ko'lamda kurash boshladilar. 1929-yildan ularni jismoniy tugatish yo'lga qo'yildi. Binobarin, bu harakatning yuzaga kelishi bevosita istilo va uning oqibatlari bilan bog'langan bo'lib uning shakllanish davrini 1865-1905 yillar bilan belgilamoq kerak bo'ladi. 1905 yil voqealari, xususan 17 Oktyabr Manifestidan keyin u rivojlanish bosqichiga kirdi. 1916 yilga kelib, jadidlarimiz "qora xalqni oqartirmoq va ko'zin ochmoq chorasiga" (Avloniy) kirishdilar. Mamlakat hayotida o'chmas iz qoldirgan. 1916 yil mardikorlar qo'zg'olonida jadidlarimiz xalq bilan yonma-yon turdilar. Taraqqiyparvar fidoiy ziyolilarimiz mustaqillik uchun kurashni to'xtatmadilar. Milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti XIX asr oxirlarida yuzaga kelgan mazkur harakat g'oyalarining adabiy badiiy ifodasi edi. Mazkur davr adabiyotini milliy uyg'onish nuqtai nazaridan o'rganish bevosita mustaqilligimiz samarasi bo'lganligidan undagi milliy istiqlol g'oyasini shakllanishi va taraqqiyoti masalalari hamisha diqqat markazimizda turadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining bonusidir. Uning dramaturgiya sohasidagi yutuqlari o'zbek adabiyotida yangi davrni boshlab berdi. Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmas edi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat Vatanning ahvolidan kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsun. Ana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. "Padarkush" ana shu tariqa yuzaga keldi.

“Padarkush” o‘zbek dramachiligining hamma yaktil e’tirof etgan birinchi namunasidir.

Hozirga qadar Behbudiy va o‘zbek dramaturgiyasi xuddi bizning malakaviy bitiruv ishimizdagidek aspektda maxsus o‘rganilgan emas. Mana shu ehtiyojni nazarda tutgan holda biz Behbudiy va hozirgi davr dramaturgiyasini tahlil ob’ektiga tashladik va uni imkon qadar xolis yoritishga, maktablarda drama janrini o‘qitishning samarali uslublarini ko‘rsatishga harakat qilamiz.

I BOB

BEHBUDIY – JADID ADABIYOTINING ASOSCHISI

1.1. Behbudiy va o'zbek dramaturgiyasi.

Endi bevosita o'zbek dramaturgiyasiga o'tadigan bo'lsak, dastavval maktab darsliklaridan o'rin olgan Behbudiyning "Padarkush" dramasiga to'xtalamiz.

Behbudiy o'zining butun ongli hayotini xalqqa va ona Vatanga bag'ishlagan. Milliy qadriyatlarimizni tiklashga, istiqbol mafkurasini yaratishga sidqidildan xizmat qilgan. Biroq shunga qaramay boshqa ko'pgina vatanparvar, xalqparvar ziyolilar qatori, Behbudiy ham kamsitilgan. Uning nomi va asarlari qora ro'yxatga tirkaldi. Behbudiy sha'niga noloyiq gaplar aytili. Bu dona insonga asossiz holda millatchi degan tamg'a bosildi. Oxir oqibatda Behbudiy nomi bilan ataladigan birorta ham shahar, tuman, maktab, kutubxona, ko'cha va xiyobon qolmadi.

Hayriyat, 1991 yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu adolatsizlik va haqsizlikka to'liq barham berildi. Kechikib bo'lsa-da, Behbudiyning pok nomi qaytadan tiklandi. Uning ulug' xizmatlari va asarlari yana munosib baholanadigan bo'ldi. Jumladan, Behbudiyning padarkush nomli dramasi qayta-qayta nashr etildi hamda maktab dasturlaridan mustahkam o'rin egalladi.

Darhaqiqat, Behbudiyning ijod sohasidagi eng katta xizmatlari shundaki, u o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib, milliy drama janriga asos soldi. Padarkush nomli uch pardali, to'rt manzarali drama ana shundan dalolat beradi. Bu sahna asarining yuzaga kelishi adabiyotimiz va san'atimiz tarixida o'sha vaqtda katta voqea bo'ldi.

Zotan, o'zbek milliy dramaturgiyasi va milliy teatri Behbudiyning «Padarkush» nomli birinchi o'zbek sahna asari bilan boshlandi. Ma'rifatparvar adib, alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy jadidchilik harakatining hamda XX asr o'zbek adabiyotining boshlovchilaridan biri hisoblanadi. U 1875 yili

Samarqand shahrida ruhoniylar oilasida dunyoga keldi. Uning otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar muallifi ediki, bu o'z navbatida Mahmudxo'jaga ta'sirini o'tkazmay iloji yo'q edi. U dastlabki ma'lumotni eski maktab, madrasalarda oldi.

1902 yilda Makkaga borib u hoji va mufti bo'lib qaytadi hamda 1903-1904 yillarda Qozon, Ufa shaharlarida bo'lib, Yevropa madaniyati bilan tanishadi. Behbudiy jadidchilik harakatining asoschisi I.Gasprinskiy bilan suhbatlar quradi va maktab-maorif, madaniyat-ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'iboti aks etib turgan bir qator maqolalari bilan ro'znoma, oynomalarda chiqa boshlaydi. Xullas, 1905 yillar arafasida Behbudiy zamonasining ko'zga ko'ringan ziyolisi bo'lib taniladi. "Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o'sha zamonda Turkistondagi jadidlar orasidan unga teng kela oladigani bo'lmasa kerak", - deb yozadi Fayzulla Xo'jayev u haqda. Behbudiy Gasprinskiy yo'lga qo'ygan "usuli jadid" maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatdi. Uning "Muntahabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), "Kitobatul-atfol" ("Bolalar kitobi"), "Tarixi muxtasari Islom" ("Islomning qisqacha tarixi"), "Amaliyoti islom", "Muxtasari jug'rofiyai rusiy" ("Rossiyaning qisqacha geografiyasi") kabi darsliklari shu jonbozlik natijasidir. Mahmudxo'ja Behbudiy adabiyot, tarix, geografiya fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug'ullanadi. U o'zining siyosiy qarashlarini, millat (uning) tili, dini, e'tiqodining kamsitilganligini ko'rib "Ey millat, mana ahvolingga bir razm sol, qanday yashamoqdasan!" degan xitob-hayqiriqlarni "Faryodi Turkiston" (1907, "Vaqt"), "Ikki emas to'rt til lozim" ("Oyina", 1913), "Til masalasi" ("Oyina", 1915), "Tanqid saralamoqdur!", "Teatr nadur?" kabi maqolalarida ifodalaydi. SHu bilan bir qatorda u 1913 yilda "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnallarini chiqarishga bosh-qosh bo'lib, bu sohada ham o'z jonbozligini ko'rsatdi.

"Ikki emas to'rt til lozim" degan maqolasida u shunday yozadi: "Biz turkistonlilarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya'ni o'zbekiyni bilmoqni sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbekiyni suylashur,

forsiy bo'lsa, madrasavu-udabo tilidir. Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar arabi ta'lim berilsa, mudarrislarning tarkiru tarjimalari forschadur. Ayni paytda yana bir til – ruschani ham bilish kerak. Chunki bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatg'a xizmat ruscha ilmsiz bo'lmaydur!"

Badiiy ijodda ham Behbudiy o'tkir muammolarni ko'tardi. 1911 yili yozilib, 1913 yilda bosilgan "Padarkush" dramasi Behbudiyga juda katta shuhrat keltirdi. Bu – birinchi o'zbek pesasi drama janriga asos soldi, degan satrlarni ham uchratamiz adabiyotlarda. Har holda Behbudiy karvonboshi bo'lib tarixga kirdi, garchi "Mahramlar" nomli o'zbek dramasi bir necha yil oldin e'lon qilingan bo'lsa-da, asar 1914 yilning 15 yanvarida Samarqand havaskorlari tomonidan sahnaga qo'yildi. 27 fevralda esa, Toshkentdagi mashhur "Kolizey"da "Turon" truppasi o'z faoliyatini shu spektakl bilan boshladi. Asar jamoatchilikka, ayniqsa, adabiyotga kirib kelayotgan yoshlarga qattiq ta'sir ko'rsatdi. "1913 yillarda chiqqan "Padarkush" pesasi ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborganimni ham payqamay qoldim", - deb qayd etadi A.Qodiriy o'z tarjimai holida. "Oyina" jurnalining 1914 yil 14-sonida bosilgan "Turkistonda birinchi milliy teatr" nomli taqriz ham shu "Padarkush" pesasining sahnaga qo'yilishi munosabati va uning insonlar ongiga, xalqqa ta'siri To'g'risidagi taqrizdir. B.A.Pestovskiy 1922 yildagi "Inqilob" jurnali sahifalarida e'lon qilgan "O'zbek teatri tarixi" maqolasida uning maydonga kelish tarixi haqida fikr yuritar ekan, "O'zbek teatrining asosini qo'yib beruvchi samarqandlik Mahmudxo'ja Behbudiydir!" – deb yozadi. Bu dramasida Behbudiy o'zining: "Ma'rifatsiz millat inqirozga mahkumdur", - degan qarashini badiiy ifodalashga uringan edi.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotimiz ko'p asrlik boy tarixga ega bo'lsada, unda hozirgi ma'nodagi realistik dramaturgiya yo'q edi. Zotan, o'zbek adabiyotida milliy dramaturgiya XX asrning birinchi choragida vujudga kela boshladi. 1911 yildan to 1917 yilgacha bo'lgan davrda «Padarkush» (Behbudiy), «Zaharli hayot», «Ilm hidoyati» (Xamza), «Qozi ila mulla», «Ko'knori», «Juvonbozlik qurboni» (Xoji Muin), "Mahramlar" (A.Samadov), "Advokatlik osonmi?

(A.Avloniy), "To'y" (Nusratilla Qudratilla), «Juvonmarg», «O'gay ona», «Boyvachcha», «Saodat» bitdi», «Xush kelding, xush ketding» (A.Badriy) kabi 20 ga yaqin sahna asarlari yuzaga keldi.

Bu pesalar turli g'oyaviy nuqtai nazardan va turli badiiy saviyada yozilgan. Shunga qaramay, bu sahna asarlarining yuzaga kelishi adabiyotimizda ijobiy voqea bo'ldi.

Shunisi muhimki, bu asarlarning ko'pida ma'rifatparvarlik, xalqparvarlik, odob-ahloq masalalari aks ettirilgan. Bu sahna asarlari orasida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" (yoki "O'qimagan bolaning holi") dramasi alohida ajralib turadi. "Padarkush" asarini yozish bilan Behbudiy adabiyotimizda o'ziga xos yangilik yaratdi. Binobarin, o'z davrida novatorlik hisoblangan bu drama XX asr o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, 1911 yilda yaratilgan "Padarkush" dramasida inqilobiy g'oyalar emas, aksincha, beozor ma'rifatparvarlik va odob-axloq qoidalari ilgari surilgan. Pesada chorizm mustamlakachilik siyosatini fosh etuvchi va qoralovchi fikr –mulohazalar yo'q. Biroq, shunga qaramay, chor mustamlakachilari uzoq vaqt davomida "Padarkush" asarini sahnalashtirishga yoki nashr etishga ruxsat bermay, dramaturgni sarson-sargardon qildilar. Ruxsat ikki yil o'tgach, 1913 yilga kelib berildi. Shu faktning o'zi ham mustamlakachilarni mahalliy-erli xalqni ma'rifatdan, ilm-fandan uzoqda tutishga tish-tirnog'i bilan harakat qilganliklarini ko'rsatadi.

Mustamlakachilarning qarshiligiga qaramay "Padarkush" 1913 yilda o'zbek va tojik tilida chop etildi. Ko'p o'tmay Samarqand, Toshkent, Buxoro, Andijon, Namangan, Qarshi, Qo'qon, Kattaqo'rg'on shahar teatrlarida sahnalashtirildi. Hamma joyda tomoshabinlar pesani olqishlar bilan kutib oldilar. Buning ikkita asosiy sababi bor. Birinchidan, o'sha vaqtlarda o'lkamizda teatr san'ati yangilik edi. Xalq esa bunday yangilikka g'oyat o'ch va muhtoj edi. Ikkinchidan, asarda o'sha davr hayoti uchun tipik voqea ko'rsatilib, ko'pchilikni qiziqtiradigan ezgu g'oyalar, ibratli fikrlar aks ettirilgan edi. Shuni alahida ta'kidlash lozimki,

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari o'z navbatida o'zbek dramaturgiyasining shakllanishiga, xususan, unda ma'rifatparvarlik an'alarining qaror topishiga samarali ta'sir etdi. Natijada, Hamza Hakimizoda, Abdulla Qodriy, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy, A. Badriy, Xoji Muin Shukrullo, Tavallo kabi yozuvchilarning ma'rifatlari ruhida yozilgan asarlari birin-ketin yuzaga kela boshladi.

Bitta fakt. Behbudiyning "Padarkush" dramasida ilmning ahamiyatini tan olmagan nodon boy ota fojiasi ko'rsatilgan va boylikka ega bo'lishi uchun o'z otasini o'ldirgan bola obrazi yaratilgan bo'lsa, Hamzaning "Yangi saodat" asarida o'qib, ilm olib otasi Abduqahhor boyvachchani halokatdan qutqargan bola obrazi (Olimjon) tasvirlangan.

Hamza asarida ko'rsatilishicha, Abduqahhor boyvachcha otasidan qolgan katta boylikni qimorga yutqazib, xonavayron bo'ladi. Natijada u oilasini boqa olmay, ularni tashlab, qochib ketadi. Xotini Maryam esa o'g'li Olimjonni o'qitadi. Olimjon xalqparvar ziyoli bo'lib yetishadi hamda Toshkentda och-yalong'och daydib yurgan otasi Abduqahhor boyvachchani izlab topadi, uyga (Qo'qonga) olib ketadi. Demak, ilm sharafoti bilan oila qayta tiklanadi.

"Padarkush" ta'sirida yaratilgan bunday asarlarni yana keltirish mumkin. Umuman olganda, Behbudiyning "Padarkush" dramasi ko'p hollarda yosh yozuvchilarga sahna asarlari yaratishda o'rnak va turtki bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk adib Abdulla Qahhor o'zining "Tarjimai holida" "1913 yillarda chiqqan "Padarkush" pesasi ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborganimni o'zim ham payqamay qoldim", deb qayd etadi. Taniqli jadid yozuvchisi Hoji Muin Shukrullo "1914 yilda "Padarkush" spektaklini ko'rib undan juda qattiq ta'sirlangan. Hoji Muin "SHundan keyin men shoirlikni bir chetga yig'ishtirib qo'yib, sahna adabiyoti yaratish fikriga tushdim"¹ -deb yozadi.

Bu yozuvchining «To'y», «Ko'knori», «Mazluma xotin», «Eski maktab-yangi maktab» kabi sahna asarlarida Behbudiyni ta'siri seziladi.

¹ "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" 1999 y 17-dekabr

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, Behbudiy o'zbek dramaturgiyasini boshlab berish bilan birga o'zbek teatshunosligiga ham asos solgan. Behbudiy mamlakatimizda birinchilardan bo'lib teatrning xalqimiz ma'naviy-madaniy hayotida mustahkam o'rin egallashi, Turkistonda milliy teatr yaratish uchun jonkuyarlik qilgan. «Teatr nadir», «Samarqandda teatr», «Turkistonda birinchi teatr», «O'ynayturg'on odam yo'qdir», «Padarkush», vajhidan», «Teatr musiqiy, she'riy» singari maqolalar yozib teatr san'atini izchil targ'ib-tashviq qilgan. Bu san'atning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari haqida yurtimizda birinchilardan bo'lib qimmatli fikrlarni bayon etgan. Bu sohada qator nazariy va amaliy ishlarni bajaradi.

Avloniyning «Turon» gruppasi o'z faoliyatini Behbudiyning «Padarkush»i bilan boshlangan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi roli va o'rni haqida nutq so'zlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o'zi ijro etgan. Mahalliy matbuot bu kunni «Tarixiy kun» deb yozadi.

«Turon» turuppasi 1914-16 yillarda bu spektakl bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chiqqan. «Padarkush» Turkistonni junbushga keltirgan qirg'inbarot inqilib yillarida ham sahnadan to'shmadi. Bir tomondan, millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o'ynagan o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi.

Bugungi tomoshabin kakitobxon uchun birinchi o'zbek dramasi ibtidoiy asar bo'lib ko'rinishi mumkin. Lekin hali zamonaviy teatr san'atidan yaxshi xabardor bolmagan tomoshabinlar uchun „Padarkush“ning 1914 yilgi namoyishlari afsonavor voqea boldi.

Yangi zamon g'oyalarini va mustaqillik davri hayoti muammolarini yoritishda san'atkorlarimiz dramaturgiya imkoniyatlaridan ham samarali foydalanishga intilmoqdalar. Shuning uchun ham bu davrda yozilgan sahna asarlarining aksariyatida jamiyatni qayta qurish va mustaqillik bilan bog'liq bo'lgan muhim mavzular aks ettiriladi. Shu bilan birga, xalqimizning uzoq va

yaqin o'tmishini istiqlool mafkurasi asosida talqin etuvchi bir qancha dramatik asarlar yaratildi. Avvalo, uzoq va yaqin o'tmishi haqida to'xtalamiz.

Ma'lumki, mustaqillik tufayli Amir Temurga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Uning buyuk tarixiy xizmatlari xaqli ravishda yuksak baholandi. Prezidentimiz Islam Karimov «bu siymo mard, tanti, halol va g'ayratli xalqimizni birlashtirishda, jipslashtirishda, iymon-oqibatli bo'lishda, qudratli kelajagimizni qurishda bizga yangi-yangi kuch-quvvat va shijoat bag'ishlaydi»,¹ deb Amir Temur shaxsiga yuqori baho berdi.

Natijada sovet davrida butunlay man-qatag'on etilgan bu ilmiy mavzu mustaqillik davrida adabiyotimizdan o'zining munosib o'rnini topdi. Yozuvchilarimiz bu mavzuni katta g'urur va iftixor bilan qalamga olib, Amir Temurni o'zbek xalqining milliy qahramoni, jahonshumul ahamiyatga molik buyuk siymo sifatida talqin va tasvir eta boshladilar. Abdulla Oripovning «Sohibqiron», To'ra Mirza va Asror Samadning «Sohibqiron Temur» kabi asarlari shu yangi davrning mahsullari bo'lib, ularda Amir Temur obrazi hayot haqiqatiga mos holda realistik bo'yoqlarda ko'rsatilgan.

A. Oripovning «Sohibqiron» she'riy dramasida Amir Temurning aql-zakovati, ijtimoiy-siyosiy faoliyati o'sha davrning murakkab hayoti fonida ochib berilgan.

To'ra Mirzo va Asror Samadning «Sohibqiron Temur» dramasida esa Amir Temurning buyukligi, donoligi vatanparvarligi, adolatligi, shuningdek, sohibqiron shaxsiyatidagi ayrim ziddiyatlar va salbiy xususiyatlar ko'rsatilgan. Bu dramaning muhim bir xususiyati shundaki, asarda bosh qahramonni ulug'lash uchun boshqa bir tarixiy shaxslarni ataylab, bo'lar-bo'lmasga qoralash va kamsitish usulidan voz kechilgan. Natijada asarda Amir Temur obrazi bilan birga, Sulton Boyazid singari tarixiy shaxslar siymosi ham hayot haqiqatiga mos, ishonarli bo'lib chiqqan. Dramada maqsad aniq konflikt hayotiy, asosiy xarakter (obraz) lar jonli va haqqoniy bo'lganidek, badiiy usullar ham puxta.

¹ «Xalq so'zi» gazetasi, 1996 y, 25 oktabr

Aslida Amir temur fe'l-atvoriga, aql-zakovatiga mos va xos bo'lgan xikmatli so'zlar, chuqur mazmunli diolog va monologlar ko'zga tashlanib turadi:

Dunyo topdim, lekin dunyo yig'madim,

Men el uchun ot ustida uxladim.

(Amir Temur so'zidan).

Mustaqillik davrida yuzaga kelgan «Jaloliddin Manguberdi», «Ajdodlar qilichi» (E. Samandar), «Qora kamar» (Sh. Xolmurzayev), «Oqpadar» (U. Azim), «Zahriddin Muhammad Bobur» (Z. Muhiddinov, M. Abdullayev). «Piri Koinot» (H. Rasul) kabi dramalarda ham o'tmish hayot va ulug' ajdodlarimiz haqida realistik sahna asarlar yaratish an'anasi davom ettirildi. Bu sohadagi yangilik shu bo'ldiki, dramaturglarimiz uzoq va yaqin o'tmish mavzularini tasvirlashda sotsialistik realizm va kommunistik partiyaviylik iskanjalarini parchalab tashladilar. Hayotni istiqlool mafkurasi asosida yangicha talqin va tasvir etdilar. Masalan, Shukur Xolmurzayev «Qora Kamar» dramasida «bosmachilik» xalqqa qarshi reaksiyon harakat emas, aksincha, o'ziga xos milliy ozodlik harakatidir, degan g'oyani sahnada obrazli tarzda ustalik bilan ko'rsatib berdi.

Mustaqillik yillarida o'zbek dramaturgiyasida paydo bo'lgan sahna asarlarining aksariyatida sovet davridagi hayot aks ettirilgan.

«Unsiz faryod» (Shukrullo), «Kurort» (O'. Umarbekov), «Temur xotin», «Taqdir eshigi» (Sh. Boshbekov), «Bir million mojarasi» (H. G'ulom), «Nomsiz Yulduzlar» (Mashrab Boboyev), «Oyna» (U.Nazarov), «Puch», «Tusmol» (A. Ibrohimov), «Qatag'on» (O'. Hoshimov), «Kunduzsiz kechalar» (Usmon Azim), «Xotinlar xangomasi» (M.Xaydar), «Bir kam dunyo» (Ilhom Hasanov) va boshqa sahna asarlarida qishloq xo'jaligi, sanoat, xususan, ma'naviy hayotda mavjud bo'lgan va sovet jamiyatini inqirozga olib kelgan jiddiy nuqsonlar ochib tashlangan.

Shu orqali to'g'rilik, halollik, insonparvarlik, mehnatsevarlik targ'ib qilingan.

O'lmas Umarbekovning «Kurort» dramasida «Mehnat ahli» jamoa xo'jaligining 80-yillardagi hayoti misolida poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilik singari illatlar fosh etilgan. Asarda ko'rsatilishicha, kolxoz raisi To'lan hamtovoqlaridan pora oladi va buning evaziga ularning nopok ishlarini oqlab, jinoyatlarini yashiradi. Natijada haromxo'rlar To'lan raisga suyanib, hech narsadan tap tortmay jinoyat ustiga jinoyat qilaveradilar.

Ha, dramadagi nopoklarning suyanchig'i bor. Bu suyanchiq poraxo'r Rais To'landir. O'z qaramog'idagi shaxslardan pora oladigan To'lan, ayni chog'da, o'zidan kattalarga pora beradi. Demak, uning ham o'z suyanchig'i bor. Ana shu suyanchiqlariga tayanib To'lan o'zini bemalol tutadi, nopoklik qilaveradi. Asarda ana shu suyanchiqning «o'sishi», keyinchalik esa ich-ichidan chirib yemirilishi va nurashi asoslab berilgan. Oqibatda To'lan poraxo'r va ko'zbo'yamachi, maishatparast va amalparast shaxs sifatida yaqqol gavdalangan. Muallif To'lanning kirdikorlarini fosh etish jarayonida jamiyatni qayta qurish va poklanish davri ruhini, halol ishlab, halol yashash g'oyasini olg'a surgan.

Asarda asosiy salbiy til To'lan obrazi qanchalik ustalik bilan yaratilgan bo'lsa, undagi bosh ijobiy qahramon Qo'ziboy obrazi ham shunchalik mahorat bilan chizilgan. Xo'jalikning bosh hisobchisi Qo'ziboy Yangi davrning mohiyatini tushingan holda, sofdil, halol kishilarga tayanib dadil harakat qiladi. Raisning nopok qilmishlarini ochib tashlab, jamoa mulkini ko'z qorachig'iday asraydi. U to'g'ri ishlab, rost so'zlaydi.

Shunday qilib, Qo'ziboy pesada nopokliklarni tag-tomiri bilan yemirib tashlab, adolat va haqqoniyat tantanasini ta'minlayotgan sofdil, halol zamondoshlarimizning tipik vakili sifatida gavdalanadi.

Bu davr dramaturgiyasi taraqqiyotida Sharof Boshbekovning «Temur xotin» komediyasi salmoqli o'rin egalladi. Komediya hayot haqiqatiga aylangan konflikt kuchli mantiq asosida mahorat bilan yoritilgan.

Ma'lumki, adabiyotimizda uzoq yillar davomida (xususan, turg'unlik yillarida) paxtakorlar mehnati, ayniqsa, paxtakor xotin-qizlar mehnati juda oson

ish tarzida, dabdabali, bayramona kayfiyatda tasvirlanib kelindi. Sharof Boshbekov «Temir xotin» komediyasini yaratish bilan dramaturgiyada birinchi bo'lib ana shu sohta tasavvurga qattiq zarba berdi. Paxtakor ayol mehnatining qanchalik og'ir, qanchalik mashaqqatli ekanini ochib tashladi.

Asarda qishloq hayoti, o'zbek ayollarining moddiy-ma'naviy jihatdan og'ir sharoitda kun ko'rayotganliklari, og'ir mehnat ostida ezilib xo'rlanayotganliklari, «joni qirqta» bo'lgan o'zbek ayollari bardosh bergan mashaqqatli mehnatga, hatto, temir ham bardosh bera olmasligini komediya janri imkoniyatlari doirasida ta'sirli va qiziqarli qilib ko'rsatilgan.

Komediyaning «Temir xotin» deb atalishida chuqur ramziy ma'no bor. «Temur xotin» mamlakatimizning ko'plab teatrlarida sahnalashtirildi va tomoshabinlar tomonidan qizg'in kutib olindi. Komediya Hamza nomidagi respublika Davlat mukofati bilan taqdirlandi.

O'tkir Hoshimovning «Qatag'on» asari ikki pardali fojia. Unda bir oila misolida 80-yillarning ikkinchi yarimida «paxta ishi», «O'zbek ishi» bahonasida O'zbekistonda bo'lib o'tgan dahshatli qatog'onning asl ma'nosi- mohiyati ochib tashlangan. Moskvadan adolat o'rnatish niqobi ostida elimizga bostirib kelgan yovuz desantchi-tergovchilarning hech qanday qonun-qoidaga va ahloq-odob mezoniga to'g'ri kelmaydigan jirkanch ishlari, shafqatsizliklari, huquqbuzarliklari, zahmatkash va halol xalqimiz nomini yomon otliqqa chiqarishga urinishlari keskin fosh etilgan. Shu bilan birga, asar qahromoni Panji Jumanov oilasidagi hayot misolida o'zbek xalqiga xos mehnatsevarlik, halollik, bag'rikenglik, haqgo'ylik, insonparvarlik va do'stlik umumlashtirilib tasvirlangan.

«Qatag'on» da ko'rsatilagan voqea ham konflikt ham o'sha mudhish, iztirobli kunlarga xos va tipik. Markazdan kelgan tergovchi Myasnikov sovxoz direktorini Panji Jumanovni pora olgansan, pora bergansan, ko'zbo'yamachilik qilib davlatni aldagansan degan soxta da'volar bilan hisobga oladi. Uni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan g'oyat qiynab azoblaydi. Undan aql bovar

qilmaydigan «gunohlariga» iqror bo'lishini va pora berishini talab qiladi. Myasnikov o'zining yovuz maqsadiga erishishi maqsadida mahalliy tergovchi Berdiyev bilan birgalikda Panji xonadonini ilma-teshik qilib tintuvdan o'tkazadi. Tuhmatu bo'xton, ig'voyu aldov yo'li bilan Panjaning xotini- sadoqatli ayol Hanifadan pul –boylik undirmoqchi bo'ladi.

Panji qamoqxonadagi zulm va adolatsizlikdan ruhan qattiq ezilsa –da, zo'ravon tergovchilarga yalinmaydi, iymon e'tiqodini yo'qotmaydi. Bor gapni dangal aytib, haqiqatni qattiq turib himoya qiladi. Panji nopok tergovchi Myasnikov tuhmatlarini fosh etib, «Yomonning kuchi yapoloqqa yetadi.» Qo'shib yozish markazning o'zidan boshlandi. Markaz esa o'zbekning yoqasiga yopishdi. To'g'ri qildi. Armaniga yopishsa, yuz ming kishi ko'chaga chiqardi. «Arman xalqidan qo'lingni tort!? derdi. Gurjiga yopishsa, ikki yuz mingi chiqardi. O'zbek – andishali xalq. Urkaltak –surkaltakni yomon ko'radi. Behuda qon to'kilishidan hazar qiladi. O'ylangan... hammasi o'ylangan. Murod –o'zbekning qonini to'kib, boshqalarni qo'rqitish », -deydi.

Yoki Myasnikov o'zbek xalqini «bosmachi», «yovvoyi», «savodsiz» deya haqoratlaganida Panji Jumanov g'azablanadi, jirkanadi. Panji kuchli mantiq asosida vazminlik bilan so'zlab, raqibini esankiratib qo'yadi: Bosmachi deb birovning yurtini bosib olganni aytadi! qaysi bosmachi qaysi yurtni bosib olibdi... savodsiz Ulug'bek rasadxona qurganda, sen qayoqda eding? Ibn Sina «Tib qonunlari» ni yozganda oktyabr revolyutsiyasi tepasida aql o'rgatib turganmiding? (istehzoli kulimsirab). Balki Beruniy Yer diametrini sening maslahating bilan o'lchagandir? ... Senlar o'ylaydigan odamdan qo'rqasan!»

Shunday qilib, Jumanov ma'naviy jihatdan jinoyatchi tergovchilardan ustun turadi. U fakt va mantiq asosida harakat qilib voqea davomida ma'naviy zafar quchadi. Buni dramaturg mahorat bilan ta'sirli va ishonarli qilib ko'rsatgan. Natijada Jumanov asarda xalqimizga xos halollik, haqgo'ylik, kamtarlik, bolajonlik singari xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan jonli obraz sifatida namoyon bo'ladi.

«Qatag'on» tragediyasida yovuz tergovchi Myasnikov obrazi ham mahorat bilan chizilgan. Myasnikov pixini yorgan ayyor, shafqatsiz, berahm. Dunyoda bu ig'vogar tergovchi qilmagan pastkashlik va ifloslik qolmagan. U o'z qora, yovuz niyatiga yetmoq yo'lida hech narsadan tap tortmaydi. O'z mansabi va mavqeini suyiste'mol qilib, aldov, xiyonat, tuhmat –bo'xton, jismoniy va ma'naviy jazo choralarini ustma ust ishga soladi. Ammo voqea davomida Myasnikov «aybdor» Jumanovning shiddat bilan keskin raddiyalariga javob topolmay shoshib qoladi va uni haqorat qilishga o'tadi: «O'chir ovozingni, ertagayoq Butirkaga jo'nataman! Obkomingni oldiga! Obkoming kim bo'пти! Respublika rahbarlariniyam emaklataman! O'zbekistondan yigirma to'rt ming jinoyatchi qamoqqa olingan. Yigirma to'rt ming nima bo'пти? Kerak bo'lsa, yana yuz mingini qamoqqa tiqamiz! Millionini qirib tashlaymiz. Bosmachilar! Eshaklar!» - deb baqiradi.

Shunisi muhimki, dramaturg asarda desantchi tergovchilarni ayovsiz fosh qilmasin, baribir, xalqlar do'stligi tamoyillariga sodiq qoladi. Xalqlar do'stligi tamoyillariga amal qilib, haqiqiy do'stlik-birodorlikni madh etadi. Shunga ko'ra o'zbeklar millatchi emas, aksincha, do'stga sodiq, vijdonli, insonparvar xalq degan g'oya asarda bo'rtib turadi.

Tragediyada xalqimizning ashaddiy dushmani, millatchi Myasnikov obraziga qarama-qarshi holda o'zbek xonadonida tarbiyalanib, voyaga yetgan, pok vijdonli inson Valentin Aleksandrovich obrazi yaratilgan. Valentin «urush yillari O'zbekistonga olib kelingan ikki yuz ming yetim bolasining biri». U Jumanovlar oilasida (o'zbek oilasida) yetimlik nima ekanini bilmay o'sgan kishi. Valentin Jumanovlar oilasi boshiga kulfat tushganda Myasnikov dag'dag'alariga qarshi «Leningrad blokadasidan chiqib kelganimda sen onangni qornidayam yo'q eding! Shu odamlar meni bag'riga oldi. Ochlikdan silam qurib, o'lim to'shagida yotganimda shular mening jonimga oro kirdi. SHular mening boshimni siladi! Oxirgi burda nonini shular mening og'zimga tutdi. Endi shu xalqqa nonko'rlik qilaymi nomard! ...Eshitib qo'y! Bu dunyoda bitta ukam deb yuribman. Panji

uchun dunyoning narigi burchagigayam boraman! O'lgunimcha olishaman!» - deydi.

Yoki, Valentin Hanifaning «qandoq kunlariga qoldiq, akajon»! –degan nolasini eshitganda «Xafa bo'lma kelin! Men senlarni bu itlarga xo'rlatib qo'ymayman» -deb mehribonlik ko'rsatadi.

Valentin Aleksandrovich o'zbek xalqining ilm-fan, ma'naviyat, madaniyat sohalaridagi yutuqlariga ham tan beradi. Asarda qo'yidagi diolig berilgan:

Myasnikov: «Nima biz yordam bermaymizmi? Manavi yovvoyilar yurtiga ilm-fanni, madaniyatni kim olib keldi?»

Valentin: «Sen o'zingni ular bilan tengashtirma! Ular fan olib kelgan bo'lsa, sen o'lim olib kelding! Qolaversa, senga o'xshaganlar madaniyatni bulardan o'rgansin!».

«Qatag'on» fojiasida asoson yettita personaj ishtirok etadi. Ularning hammasi ham asarda o'z o'rnini va o'z yukiga ega. Bosh qahramon Panji Jumanov xarakterida haromdan hazar qilish, el yurt ishiga sadoqat ustun turadi. U o'zining «qip- qizil lo'ttibozlik! Bu yoqdan tola o'rniga vogonlarda havo, samalyotlarda pul bor ekan, u yoqdagilar nega indamabdi? Nega bizga pul kerakmas, tolaning o'zini beringlar, demadimi? » - tarzidagi o'tkir so'zlari bilan battol tergovchilarni boshi berk ko'chaga haydab soladi.

Xuddi shuningdek, Valentin obrazida rus ishchilariga xos mardlik, tantilik, do'stlik, insonparvarlik; Hanifa obrazida esa o'zbek kelinlariga xos vafo, sadoqat, hayo –ibo, qiyinchiliklarga bardosh berish va bolajonlik sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. Bularga qarama-qarshi holda berilgan Myasnikov xarakterida manmanlik, zo'ravonlik, shafqatsizlik, ikki –yuzlamachilik singari jirkanch qiliqlar mujassam. Asarda mahalliy tergovchi Berdiyev va paxta qabul qilish punkti mudiri Omonov epizodik obraz sifatida berilgan bo'lsa –da, ular ham o'zlariga xos va mos xarakter belgilari bilan ajralib turadi. Demak, O'tkir Hoshimov «Qatag'on» fojiasida xilma-xil xarakterlar yaratishda mahorat ko'rsatgan.

Asar syujeti va kompazitsiyasi ham puxta. Unda ortiqcha epizodlar va keraksiz detallar yo'q. Shuningdek, asarda konfliktning o'sish darajasi ham me'yorida. Shu sababli syujet va voqea rivojida sustlik sezilmaydi.

«Qatag'on» shirali va obrazli tilda yozilgan. Asarda kuchli mantiq asosiga qurilgan semazmun va chiroyli jumlar, yangi-yangi o'xshatish, sifatlash, mubolag'a singari tasviriy vositalar ko'zga yaqqol tashlanadi.

Mustaqillik davrida o'zbek dramaturgiyasida kishilarimizning ma'naviy hayotini, ma'naviyat masalalarini yoritishga katta e'tibor berildi. Natijada adolat va haqqoniyat, halollik va to'g'rilik do'stlik va vafodorlik, adolat, mehr-oqibat va yuksak ahloq-odobning fitna-fasod, fisqu-fujur, to'xmat, makr va ayyorlik ustidan g'alabasini ko'rsatuvchi xilma-xil sahna asarlari vujudga keldi. Shuningdek, mustamlakachilik davrida kamsitilgan, hatto oyoq osti qilingan, endilikda, mustaqillik davrida qayta tiklangan, tegishli tarzda o'z qadr-qimmatini topa boshlagan milliy urf-odatlarimiz ixlos bilan tasvirlandi. Xalq va mamlakat hayotidagi ibratli tomonlarni, ilg'or tamoyillarni yoritish bilan birga, turmushda uchraydigan manmanlik, nopoklik, qalloblik, tekinxo'rlik, ig'vogarlik, ma'naviy qashshoqlik singari illatlar fosh etiladi.

Bu sohadagi yutuqlarni «To'ydan keyin tomosha» (Shukrullo), «Chimildiq» (E. Xushvaqtov), «Taqdir» (R.Ma'diyev), «Farishta» (X. Rasul), «Superqaynona» (S. Imomov), «Diyonatga xiyonat» (K. Avaz), «Quduq tubidagi faryod» (F. Shermuhammad) va boshqa asarlar misolida ochiq ko'rish mumkin.

Taniqli shoir va dramaturg Shukrulloning «To'ydan keyin tomosha» dramasini olaylik. Bu asar Abdulla Qodiriyning «Baxtsiz kuyov» dramasiga g'oyaviy mazmun jihatdan yaqin turadi. Ma'lumki, «Baxtsiz kuyov» da boylarga taqlid etib kata to'y qilgan va natijada qarzgaga botib baxtsizlikka uchragan kambag'al yigitning fojiasi hikoya qilingan edi. Shukrullo o'z asarida A. Qodiriy an'alarini Yangi zamon voqealari asosida ijodiy davom ettirdi va bu an'alarni boyitdi. «To'ydan keyin tomosha» dramasida ba'zi o'zbek oilalarida nikoh to'yi tantanalari haddan tashqari oshirib yuborilayotganligi,

to'ylarda ortiqcha iyarobgarchilik bo'layotgani va buning ayanchli oqibatlari ochib tashlangan.

Ikki yosh – Mo'min bilan Xolida bir-birini jondan ortiq sevadi, oila qurmoqchi bo'lishadi. Biroq ortiqcha xashamu dabdaba, «men undan kammi?» deya manmanlik qilish, «kim o'zarga» to'y- tomosha berish illati bu ikki yoshning boshiga balo bo'ldi. Oila sohiblari o'z imkoniyatlariga qaramasdan katta to'y qiladilar va qarzini to'lay olmay behad qiynaladilar. Buning ustiga, ko'p o'tmay Mo'minning onasi Nazira bibi kichik qizini dabdabali to'y qilib uzatmoqchi bo'lib qoladi. Shu niyatda ona Mo'minning to'yiga tushgan bisotga chang soladi: kelinning buyumlarini qizining to'yiga sarflamoqchi bo'ladi. Yosh kelin Xolida esa bunga qattiq qarshilik ko'rsatadi. Shunday qilib, Mo'minni bir tomondan onasi, ikkinchi tomondan, xotini qiynaydi. Mo'min onasinining talabiga rozi bo'lsa xotini, xotinining rayiga qarasa onasi ranjiydi, xafa bo'ladi. Oqibatda Mo'min ruhan eziladi, iztirob chekadi, hatto o'zini osib o'ldirmoqchi bo'ladi.

«To'ydan keyin tomosha»da dramaturg isrofgarchilik, ortiqcha dabdaba koni ziyon ekanini ko'rsatish bilan birga, qing'ir nopok yo'llar bilan boylik yig'ishni, harom yo'l bilan yig'ilgan boylik evaziga dabdabali to'y qilishni qoralaydi. Bu jihatdan dramadagi eru xotin Fozilxo'ja va Chamandaxon hayoti diqqatga molik. Fozilxo'ja sofdil, sodda va halol ziyoli. U qurbim, iqtisodiy quvvatim yetadi, deb isrofgarchilik qilmas, ortiqcha hashamu dabdaba bilan katta bersam «yo jinni, yo gado bo'laman», -deydi. Fozilxo'ja boylikka hirs qo'ygan, manmanlikka berilgan boyvuchcha xotini Chamandaxon talablariga e'tiroz bildirib,

Agar harom qo'shib to'y qilganimdan,

Bez terganim yaxshi ko'chaga chiqib, -deydi.

Asarda to'y, to'yga tayyorgarlik to'yni o'tkazish va to'ydan so'ngi mojaralar qiziqarli qilib aks ettirilgan. Hayotdagi, ayrim kishilar ongidagi salbiy, ziyonli holatlar ochiq ko'rsatilagan. Hozirgi yangi davrga munosib, kamtarona, shirin-shakar, madaniy to'ylar o'tkazib, sevishgan kelin-kuyovga oq fotiha berish

g'oyasi ilgari surilgan. Ana shuning uchun ham «To'ydan keyin tomosha» dramasini Prezidentimizning to'y marosimlarini tartibga solish haqidagi ko'rsatmalariga o'z vaqtida berilgan yaxshi javob deyish mumkin¹.

Dramada:

Baxtimizga chiqqan Farmoni oliy,

Bizni tashvishlardan ayladi xoli, - tarzdagi so'zlarning asosiy g'oya sifatida aks sado berishi ham bejiz emas. Agarda dramada voqea yechimi yanada teran va hayot haqiqatga yanada mos qilib berilsa, dabdabali to'y tarafdorlarining pushaymoni yanada yorqinroq aks ettirilsa, «To'ydan keyin tomosha» ning g'oyaviy mazmuni, tarbiyaviy estetik ta'sir quvvati hech shubhasiz oshgan bo'lardi.

Mustaqillik yillarida dramaturgiyamizda milliy urf-odatlarimizga sadoqat, axloq-odob, sevgi-muhabbat mavzular inson qadr-qimmatini ulug'lash masalalari bilan uzviy bog'liqlikda aks ettirildi. Erkin Xushvaqtovning «Chimildiq» dramasida bu xususiyat o'ziga xos bir yo'sinda namoyon bo'ladi. Asar syujeti bir-birini ilk bor chimildiqda ko'rgan ikki yoshning qalb tug'yonlari, muloqotu munozaralari, murosayu muhabbatlari asosiga qurilgan.

Avvallari butunlay rad etilgan va qoralangan milliy urf-odatlarimiz kelin, kuyov, momo, yanga, qaynona, qayinsingil obrazlarining harakatlari, dialog va ichki monologlari vositasida xayrixohlik bilan ko'rsatilgan. «Chimildiq» dramasi tomoshabop qiziqarli qilib yaratilgan.

Sanjarali Imomovning «Superqaynona», «Erginamning orzusi» komediyalarida ham sevgi-nikoh, oila mustahkamligi, milliy urf-odatlarimizga rioya qilish masalalari juda qiziqarli va ta'sirli qilib ko'rsatilgan.

Bunday misollarni yana ko'plab keltirishimiz mumkin.

Mustaqillik davrida o'zbek dramaturgiyasi erishgan yutuqlar faqat yuqorida qayd etilganlaridangina iborat emas. Bu davrda dramaturgiyada janriy o'sish-o'zgarishlar ham ko'zga tashlanadi. Dramaturglar yangi zamon g'oyalarini

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidenti Farmoni. «Xalq so'zi» gazetasi, 1998 y. 29 oktabr.

ifodalashda komediya janri imkoniyatlaridan samarali foydalandilar. Samimiy yumor bilan sug'orilgan xushchaqchaq komediyalar bilan birga «Shayton va farishta», «Soyibxo'ja operasi», «Kuyov» singari tragik komediyalar ham yuzaga keldi.

Bu davrda o'zbek dramaturgiyasida og'zaki va yozma adabiyotimizda mavjud bo'lgan syujetlar asosida sahna asarlari yaratish an'anasi ham davom ettirildi. Natijada Cho'lponning «Kecha va kunduz», Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», Oybekning «Navoiy», /afur /ulomning «Shum bola», P. Qodirovning «Yulduzli tunlar», Tohir Malikning «Shaytanat» roman va qissalari asosida yangi-yangi sahna asarlari, kino va telefilmlar yaratildi.

Umuman olganda mustaqillik davrida o'zbek adabiyotida sahna asarlar kam yozilmadi. Biroq tomoshabinlarga har jihatdan manzur bo'ladigan yuksak sifatli asarlar kam yozildi. Buning ustiga, ayniqsa, mustaqillik tufayli yuzaga kelgan moddiy va ma'naviy hayotda, odamlarimiz ong-tushunchasi va dunyoqarashidagi yangiliklar, tub sifat o'zgarishlarini yangi zamonda vujudga kelgan yangi qahramonlar timsolida mahorat bilan gavdalantiruvchi yetuk sahna asarlari yetarli emas. Hozirgi vaqtda mulkni xususiylashtirish, savdo-sotiq, fermerlar hayoti, oliy o'quv yurtlaridagi islohatlar, milliy kadr tayyorlash dasturini amalga oshirishdagi muammolari, chet ellik ishbilarmonlar bilan bo'ladigan muomila-munosabatlar haqida yangi-yangi sahna asarlari yozilsa, xalq xo'jaligining turli sohalarida javlon urib halol mehnat qilayotgan tadbirkorlarimizning ko'plab xilma-xil, jonli, yorqin obrazlari yaratilsa ayni muddao bo'lar edi.

Matbuotda «Lekin dramaturgiya davr talablaridan ortda qolyapti. Maishiy muhitni tasvirlash kuchaydi. Tarixiy asarlarni sahnaga olib chiqishda tarixiylik mezonlari buzilib, davrning haqiqiy manzarasi shoshma-shosharlik bilan bir yoqlama ko'rsatilayotir»¹ –deb yozildi. Bu tanqidiy fikrda muayyan darajada

¹ O'zbekiston adabiyoti va san'ani gazetasi, 1999 y, 17 avgust.

haqiqat bor. Demak, mustaqillik davri dramaturgiyasining o'ziga xos muammolari va vazifalari mavjud.

1.2. «Padarkush» dramasida ilm-ma'rifat g'oyalarining targ'ib etilishi

"Padarkush" dramasida boy (50 yoshda), boyning o'g'li Toshmurod (15-17 yoshlarda), domulla (yangi fikrli mulla, 30-40 yoshlarda), ziyoli (musulmon), boyning qotili Tangriqul, armoni mayxonachi (Artun) va boshqa obrazlar ishtirok etadi.

"Padarkush" pesasining qisqacha syujeti quyidagicha: Toshmurodning otasi nihoyatda badavlat shaxs. Lekin bu boy ilm-ma'rifatning ahamiyatini tushunmaydi va tushunishni ham istamaydi. Aqlli-ilmli kishilarning "o'g'lingizni o'qiting " degan so'zlariga quloq solmaydi. Chunonchi, bu nodon boy domlaning «sabab nedurki, o'qitmaysiz? Vaholanki, o'qimoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharafoti oxiratdir», degan beg'araz so'rog'iga g'azablanib tubandagicha javob beradi:

"Ay domulla siz menga tahqiqchimi? O'g'il meniki, davlat meniki, sizga nima? O'qiganning biri siz, yemoqqa noningiz yo'q; bu holingiz ila menga nasihat qilursiz¹"

Voqea boy bilan uning o'g'li Toshmurod ota-bola o'rtasidagi oddiy bir muloqotga boshlanadi. Tomoshabin bu manzaraga birichi duch kelishida oiladagi tabiiy bir holat sifatida ro'y berishi mumkin bo'lgan mayda –chuyda gaplar deb yengil-elpi gap tarzida ko'ringan mazkur muloqot tagida juda katta fojialar yetganligini darrov payqab olish qiyin.

Boy domulla bilan mehmonxonada o'tirganda Toshmurod dab-durustdan kirib salom yo'q, alik yo'q «Tomoshaga boraman , pul Bering!» deb murojaat qiladi. Boy o'g'liga pul berib, barvaqtroq kelishini tayinlaydi, kimlar bilan borayotganligini so'rab, «yomon joylarga» bormasligini ham ta'kidlab qo'yadi.

¹ Behbudiy «Padarkush» dramasi, Sharq yulduzi, 1989 yil. 7-son,

Toshmurod pulni olayotib, otasiga tanbeh beradi – «Xayr, xayr, hov, ko'p gapirasizda!» deb chiqib ketadi. Bu muomaladan domullaning ta'bi xiralashadi. Ota-bola o'rtasidagi bunday muomala har ikkisida ham ma'rifatsizlikdan, johillikdan kelib chiqqan deb biladi. Domulla nihoyat, boydan o'g'li qaysi maktabda o'qishini so'raydi. Shu birgina savolga olingan javob Turkistondagi savdo-sotiq bilan shug'ullanayotgan tabaqa vakillarining hayotida ro'y brayotgan ahvol ruhiyatini ochib ko'rsatadi. Domulla Toshmurodday boyvachchaning bu qadar beodob, beandisha qilib o'qitayotgan ta'lim-tarbiya maskanini bilmoqchi edi. Afsuski, ahvol domulla o'ylagandan ham battarroq bo'lib chiqdi. Toshmurod kattagina yigit bo'lib qolgan, bironta maktabda o'qimoydi, otasi o'qitmoqchi ham emas ekan. Bolaning otasi boy savdogarchilik qiladi, ammo savodsiz. Uzoqni ko'rish yetti uxlab tushiga ham kirmaydi. Hozircha oz-moz pul topib kunini ko'rib turibdi; ertaga nima bo'lishini bilmaydi, o'ylashga aqli ham yetmaydi. Ilmsiz, bilimsiz johil boy o'g'lidan ham battar dag'al, qo'pol, madaniyatsiz, ma'naviyati puch kimsa. Zamonada kun tartibiga chiqayotgan muammolardan birontasi bilan ishi yo'q, payqolmaydi, Dunyo miqyosidagi voqealardan esa, batamom mahrum bir gumroq. O'zining ahvoli shu bo'lgandan keyin boy bola tarbiyasiga, zamon talablariga javob berishni qayoqdan bilar?! Mana, yangi fikrli domullani tashvishga solgan, o'yga toldirgan, qalbini o'rtab, ko'zlaridan alam yoshini oqizgan fikr-mulohazalar shular edi. Bunday ketishda Turkiston boylari-yu, oddiy fuqarolarining mustamlakachilarga oyoqosti bo'lib, hatto millat sifatida yo'qolib ketishi xavfidan tashvishga botayotgan jadidchilik ziyolilari boy va uning oilasi taqdiriga befarq qaray olmasdilar. Domulla mazkur ayanchli ahvolga o'z munosabatlarini bildiradi, Behbudiyning asl maqsadlarini ifoda etadi. Ilqg'or ziyolilarning fikricha, Turkiston boylari-yu barcha tabaqa fuqarolari avvalo, o'zlari ilm-ma'rifatga ega bo'lishlari, madaniyat va taraqqiyotga hurmat bilan qarashlari, nihoyat o'zlaridan keyin esa, bolalari ularning ishlarini, savdo-tijorat faoliyatlarini davom ettirishgina emas, uning zamona talablariga javob

beradigan darajada yanada yuqori pog'onalarga ko'tarishga qodir bo'lishlari kerak. Har bir ishni taraqqiy ettirish haqida o'ylashlari va shunga erishishlari lozim. Shunday shaxs bo'lib yetishmoqning bosh omili-ilm, ta'lim, dunyo ko'rish, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan o'rnak olish va ular bilan tenglashishga intilish, raqobatlariga dosh berish...

Ko'pdan ma'lumki, aksari boy oilalarda tug'ilgan bolalar erka, tantiq, biron o'qishga. Ishga, hunarga toqati yo'q, yonlari to'la pul, otalarining pulini sovurib, aysh-ishrat qilib yurishadi. Oilada hamma to'q, yegani oldida, yemagani ketida, yaxshi kiyinadi, restoranlarda ichib kayfini suradi. Ota pul topadi, ona pishirib-kuydirib turadi, bolaning hech qanday ehtiyoji yo'q... Ammo bolaning qayerlarda. qanday yurgani ta'lim-tarbiyasi bilan hech kim shug'ullanmaydi. Bunday oila bolalari va butun oila oqibat natijada halokatga uchrashi Behbudiy va butun jadidlarni iztirobga soladi. «Padarkush» da bu masalalar juda keskin qo'yiladi. Toshmurod o'z ota-onasi ayblari bilan otasini o'ldirishgacha boradi. Bunga otasining o'zi aybdor edi. U pul topishdan o'zga biron narsani o'ylashga qodir emas, qodir bo'lishni ham istamasdi. Ana shu tabiati o'z boshini yedi. Mana boyning tabiati «...Meni savodim yo'q bovujud shu shahrimizning katta boylaridandurman»¹. Boy o'zini yana juda bilimdon hisoblab, «Har ishni bilurman » deb qo'yadi. O'jar, johil boy chala-chulpa savdogarchilik bilan bundan buyon kun ko'rish qiyinligini, u zamonlar o'tib ketgani haqidagi gaplarga quloq solishni ham istamaydi. Odob, andisha degan narsa boyning o'zida yo'q. Bolasida qayoqdan bo'lsin degan mazmun bo'rtib turadi. Domulla va ziyoli ayni zamonda ro'y berayotgan yangiliklar, jahon miqyosidagi ahvollar, o'zgarishlar, Fan-texnika taraqqiyoti, yangi paydo bo'layotgan sanoat korxonalari talay muammolar to'g'risida har qancha jon kuydirib gapirganlari bilan boyga zarracha ta'sir etmaydi. Boy bilimsiz, ma'rifatsizligi tufayli johil, ongsiz bo'lganidan ziyolilar tabaqasini hurmatlashni ham bilmaydi. Ziyolilar aslida xudi shu boy va uning oilasi bola-chaqalari, yeri-

¹ Sharq yulduzi, 1989 yil. 7-son,

mulki, boyligini saqlab qolish haqida, mustamlakachilarga yem bo'lib ketishdan qutqarib qolish haqida g'amxo'rlik qilayotganlarini boy aslo tushunmas, tushunishni ham istamasdi. Chunki u johil, qoloq odam. Modomiki, o'zi shu qadar tarbiyasiz bo'lgan ota-onalar bolalarini tarbiya qilishni qayoqdan bilardi?! Aslida barcha bolalarga tarbiya berishda birinchi ma'sulyat ota-onalar zimmasiga tushajagiga asosiy urg'u beradiki, bu muammoni hozir ham huddi shunday deb hisoblash mumkin.

Behbudiy ta'lim-tarbiyaning yoshlar o'rtasida buzilib ketishiga oilalar sabab bo'layotganini tomoshabin qalbiga chuqurroq singdirish uchun Turkiston boylaridan birini tanlab, uning o'ziga xos xususiyatlarini- boy deb nomlangan personajga jamlab ko'rsatadi. Unga «Boy» deb ot qo'yish ham o'ylab topilgan. Behbudiy aslida Turkistonning barcha aholisini boy-badavlat qilish yo'llarini o'ylaydi. Ommaviy ravishda farovonlikka erishmoq uchun esa, kishilarning ma'naviy dunyoqarashini ommaviy ravishda ko'tarish kerak, zero shundagina moddiy boylikni ham ko'tarish imkoniyati tug'iladi. Behbudiy tanqid qilib ko'rsatgan boylar, ularning oilalaridagi ahvol hozir ham ro'y berayotgan ayrim «yasama boy va boyvachchalar qiyofasini eslatib turmaydimi? Eslatadi». «Padarkush» dagi boyning dunyoqarashi -qiyofasiga juda mos tushadi. Mana uning hayoliga keladigan fikr-mulohazalar: «Meni hayolimga dunyoning sababi izzati-boylik. Oxiratga bo'la, xudoning qilgan taqdiri bo'ladi. Chunonchi, biz ko'ramizki, odamlar boyni mullodan ziyoda qilurlar. Xusasan, mana banklar ko'paydi. Katta boylar chlen bo'lib, har kim chlenlarni izzat qilur hatto musulmonlar nari tursin. O'ris va armanilarda izzat qulur».¹

Boy ziyoli Domullaning bola tarbiyasi, uni o'qitish haqidagi so'zlariga e'tibor berish uyoqda tursin, gapini bo'lib, hatto o'zini haqorat qilib chiqarib yuboradi. Boy davlatiga mahliyo, bo'lib, odob-axloq, ta'lim-tarbiya, jamiyat tuzum, fuqarolar taqdiri, vatan-millatning kelajagi degan tushunchalardan batamom mahrum bo'lib qolgan. Na o'z foydasi, na oilasi kelajagi haqidagi

¹ Sharq yulduzi, 1989 yil. 7 – son, 151 – bet

gaplarning ma'nosini anglaydi. Tomoshabin boyning gap-so'zlari-yu hatti-harakatidan nafratlanadi. Iztirob chekadi. Boy ziyolilarning Biron faoliyatini yoqtirmaydi.

Domulla boyning oldidan nihoyatda ranjib chiqib ketayotganda yoshlar tarbiyasiga oid fikr mulohazalarni shunday ifodalaydi: «O'qimoq va mullo bo'lmoq uchun pul kerak, badavlatlarimizni holi bul, bas, bu ketish da mavzambilloh dunyo va oxiratga rasvo bo'lurmiz, o'qimoq barcha musulmonga, erkak va xotun bo'lsin farz edi. U qayda qoldi?! Oh voy bizni holimizga... Boy men sizga amri ma'ruf etdim va menga shariat bo'yicha lozim bo'lgan ishni bo'ynimdan soqit qildim. Inshooloh, mo'ylab chiqarib alifni tayoq demayturg'on o'g'lingiz holini ko'rarmiz va ham o'qitmaganingiz uchun gunohkor bo'lursiz!...»

Behbudiy bor kuchi- qobiliyati bilan butun Turkiston aholisini g'aflatdan uyg'otishga intilgani bu asarda ayniqsa jo'sh urib turadi. Uning boshqa barcha asarlari-yu, faoliyatida ham yetakchi fikr bo'lib qoladi. Zotan, millatni qaramlikdan, halokatdan qutqarish uchun yo'l axtaradi-yagona yo'l taraqqiy etish, har tomonlama rivojlanish deb bilardi. Boy singari kattalarda ko'ringan nuqsonlar- ularning bolalariga ham o'tishi tabiiy va bu ish Behbudiy va butun jadidlarni tashvishga solardi. Bu jihatdan asardagi ziyoli obrazi ham e'tiborni tortadi. Personajga –ziyoli deb nom qo'yiladi. U Domullaga nisbatan ham ilg'orroq mulohazalarni bayon qiladi. Ziyoli ovrupocha kiyingan, ta'lim olgan, uning tashqi qiyofasi, gap-so'zlari, hatti-harakatlari yanada yangicha, zamonaviy ruhda. Ziyoli domullaning aytganlarini to'ldiradi, davom ettiradi... Shariatda ta'kidlangan ilm-ma'rifatga oid aqidalarni ham hozirgi dunyo miqyosida rivojlanib borayotgan Fan-texnika, madaniy-ma'naviy taraqqiyot haqidagi ma'lumotlarni ham anchagina chuqurroq bayon qilishga intiladi. Uning gaplari ham boyga zarracha ta'sir etmaydi. Puldan boshqani ko'zi ko'rmaydigan. qulog'i eshitmaydigan bu gumroh -boy unga ham hurmatsizlik qiladi. Lekin ziyoli o'z madaniyati, odobi doirasida. Sabr-toqat bilan boyga gap uqtirishga harakat qiladi... «Olimiy zamona bo'lmoq uchun, -deydi ziyoli –bolalarni avvola

musulmon xat va savodini chiqarib, zarurati diniya va o'z millatimiz tilini biladurg'ondan so'ngra hukumatimizni nizomli maktabdarida bermoq kerakdur: ya'ni gimnaziya va shahar maktablarini o'qib tamom qilg'onlaridan so'ng Peterburg, Moskva dorilfununlarig'a yuborib, doktorlik, zakonchilik, sudyalik, ilmi sanoat ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qitmoq lozimdir. Rossiya vatanina va davlatina bilfe'l sherik bo'lmoq kerakdir va davlat mansablarini kirmoq lozim. Toki maishat ehtiyoji zamonimiz to'g'risida vatan va millati islomga xizmat qilinsa va podshpohlik mansablariga naf kirib musulmonlarga'a naf yetkurilsa va ham davlati Rossiyaga sherik bo'linsa, hattoki shu tariqa o'qigan musulmon bolalarini Farangiston, Amriqo va Istambul dorilfununlariga tarbiya uchun yubormoq kerakdir...» ajdodlarimiz qirib tashlangan. Biz bu izohni shuning uchun beryapmizki, har bir millat va xalq orasida yaxshi odat va yaxshi odamlar bilan birga yomon odat va yomon odamlar ham bo'ladi. Biror yomon yoki haramxo'rni tanqid qilish o'sha kishi mansab bo'lgan butun bir xalq va millatni qoralash degan emas, jadidchilik harakatining yetakchilari, ayniqsa, Behbudiy, Ismoilbek, Fitrat, Abdulla Qodriy va boshqalar bu holatni chuqur idrok etganlar «Padarkush» da Behbudiy o'zbek boylarini qanday tanqid qilgan bo'lsa, armoni millatiga mansub –Artun obrazida mayxona- pivoxonalarni ko'plab ochib pul topish uchun ichkilikbozlikni tarqatayotgan, Liza obrazida buzuq rus ayollari mahalliy millatga fohishalikni ko'paytirayotgan salbiy kishilarni qattiq fosh etadi. Mazkur ikki tovlamachi yoshlarni maishatga tortib, bor-yo'qlarini shilib olishadi... Maishat, ichkilikbozlikka pul topish uchun Toshmurod bezori o'rtoqlari bilan otasini o'ldirib, boyligini talan-taraj qiladi. Hamma o'g'irlik mol va pullarini pivoxonada, Liza va Artunlarga sarflaydi... Artun Lizani yoshlarga qo'shib pul ishlaydi, ko'plab mahalliy aholi yigitlari Artun va Lizaga ergashib jinoyatga qo'l uradi. Musulmon bolalarining bu xilda yo'ldan chiqib, tarbiyasi buzilib ketayotganini Behbudiy ham ota-onalarga, ham mustamlakachilar aloqadar qilib ko'rsatadi, muallif bunday fojialarga befarq qaray olmas, qattiq iztirob cheqardi... Behbudiy mazkur manzarani jonlantirib

ko'rsatadi: bir to'da yoshlar boyning o'g'li Toshmurod, o'rtoqlari Tangriqul, Davlat, Nor pivoxonada ichkilikbozlik qilib o'tirishadi, kayflari taroq. Qadah ko'tarib, og'izlariga nima kelsa shuni gapirishadi. Mast-alast holda hech kimdan tap tortmay ko'ngillariga kelgan bema'ni, beparda gaplarni bemalol aytaverishadi. Shu vaqt hammasining yodiga Liza tushib qoladi. "Oh, Lizaxon qaydasan?!" deb baqirishadi. Toshmurodni maqtashib uning salomatligi uchun ketma-ket ichishadi. Unga yasama muomala qilib, "Boyvachcha, boyvachcha" deb Toshmurodni battar gerdaytirib bo'lishicha, bu bo'z bolalalar Lizaxon bilan ilgari ham uchrashishgan, uni yaxshi yo'qlab turishadi. Buni doim Artun tashkil qiladi. Artun bolalarga ko'proq ichirib turib, yo'qlashlari bilan Lizaxonni duch keltiradi, qo'shmachilik qiladi. Yoshlar tarbiyasi buzulayotgani na Artun va na Lizani zarracha qiziqitirmaydi. Ularga pul kelib tursa bo'ldi. Kayf oshgach, yigitlar Artunni chaqirib Lizani keltirishni so'rashadi. Artun katta pul talab qiladi. Bo'lmasa Lizani kelmasligini aytadi. Yigitlar hammalari yonlarini kovlab bor pullarini to'plab ko'rishsa, Artun va Liza talab qilgan miqdorga yetmaydi. Bu vaziyatdan chiqish uchun o'g'irlik qilishga qaror berishadi. Bezori ichkilikboz Nor, Davlat, Tangriqullar maslahatlashib, Boyning o'g'li Toshmurodni ishga solishadi. Uning otasi boyligini hamma yaxshi biladi.

Boyning pulini o'g'irlashda Toshmurod boshchilik qilishini uqdirishadi. Nihoyat kechasi Toshmurod o'z uyiga o'rtoqlarini boshlab borib, otasining boyligini bosib olishadi. Tangriqul boyga pichoq urib o'ldiradi. Toshmurod o'rtoqlari bilan yana halili pivoxonaga borib hech narsa ko'rmaganday maishat qilishaveradi. Endi Liza ham kelgan, unga, Artunga aytgan pullarini berib yana ichkilikbozlikni davom ettirishadi... SHu vaziyatda ularning qilmishlari oshkor bo'lib, politsiyachilar yigitlarini qo'lga oladi, Liza qochadi, Artun pul ishlayveradi...

Asarda Behbudiy chor Rossiyasi Turkistonga nimalar olib kelganligi va ichkilikbozlik, fohshabozlik mahalliy ahvoli o'rtasida qanday fojialarga olib kelayotganini ko'rsatishga alohida ahamiyat beradi. Tomosha oxirida ziyoli

nimalar deganiga yana bir ahamiyat beraylik: "Agarda bular" ichkilik ichmasalar edi, dunyo va oxiratda alabad azob va mehnatda qolmas edi. Oh, haqiqatda boyni o'ldirgan va bu yigitlarni azobi abadiyga giriftor qilgan beilmlikdur..."

Behbudiy jamiyat taraqqiyoti yo'lida qanday muammolarni ko'tarib chiqmasin, hammasida tub asos qilib oila (ota-ona) bilan maktab o'rtasida yaxshi aloqalarni yo'lga qo'yish yoshlar ta'lim-tarbiyasining negizi deb biladi. Busiz bola tarbiyasini ko'ngildagidek rivojlantirib bo'lmasdi. Mazkur muammo hamon kun tartibida turgan eng dolzarb masala ekanligi bilan ham o'z qimmatini saqlab qoladi. Istiqlolimizni mustahkamlash borasidagi kurashlarda bu masalani hamisha diqqat markazda saqlash lozim. Yoshlarimizni buyuk ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy me'ros, eng ilg'or milliy an'analarimiz zaminida, milliy va usuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bundan keyin ham birinchi darajali masalalardan bo'lib qoladi, uni hal etishda Behbudiy va uning safdoshlari ma'naviy me'rosi bizga ko'mak beradi.

Ko'rinadiki, "Padarkush" dramasida hayotiy voqea va ziddiyatlar ko'rsatilib, nodonlik va jaholat qoralangan. Ilmsizlik va maishatbozlik, axloqsizlik tanqid qilingan. Ilm-ma'rifatni egallash g'oyasi targ'ib-tashviq etilgan. Bu asarning badiiy-estetik ahamiyati ana shunda.

II BOB

BEHBUDIY HAYOTI VA IJODINI O'RGATISH

2.1. Adabiyot darslarida drama janrini o'rgatish

Xalqning madaniy saviyasi o'shib borishi bilan san'atning jamiyat hayotiga, uning ma'naviy-psixologik iqlimiga ta'siri ham o'rta boradi. Shuning uchun ham jamiyat hayotining burilish davri bo'lgan hozirgi kunlarda adabiyotning xalq hayotiga ta'siri juda katta. Nafaqat xalq ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, balki iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishda, ijtimoiy rivojlantirishni yaxshilashda ham adabiyotning o'rni beqiyos. Chunki jamiyatda eng yaxshi qonunlar ham ularga amal qilingandagina biror ahamiyat kasb etadi. Binobarin, odamning qandayligi jamiyatning qandayligini belgilaydi.

Hozirda adabiyot o'qitishni o'rta, o'rta maxsus va oliy maktabda tubdan yaxshilash masalasi turli darajalarda qayta-qayta ko'rilayotgani boisi ham shunda. "Sharq yulduzi" jurnali 1987 yilning iyun sonida "Maktab va adabiyot" mavzuida bahs uyushtirib, unda adabiyot o'qitishini qayta qurishning dolzarb masalalarini ilk bor ko'tarib chiqadi. Mazkur bahs boshlanganiga yigirma yildan oshib ketdi hamki, u o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Bu orada adabiy ta'lim ikki bor yangilandi.

Maktabda adabiyot o'qitishdan maqsad yozuvchilar va ularning ayrim asarlari haqida o'quvchilarga ma'lumot berish emas, balki ezgu ma'naviyat shakllantirishdan iboratdir. Bu maqsadga o'quvchida badiiy adabiyotga mehr uyg'otish, adabiyotning sehri olami tilsimini topib berish orqaligina erishish mumkin. Darslikdagi asralarni o'z talabalariga to'liq o'qitgan, ammo ularni dasturda bo'lmagan boshqa badiiy asarlarni o'qishga o'rgata olmagan o'qituvchi mehnatkash, fidoiy bo'lsa-da, yaxshi muallim sanalmaydi.

Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichi komil shaxsni shakllantirishni taqozo etadi. Bunday shaxssiz mustaqillik - puch gap. Chunki mamlakatning mustaqilligi unda yashayotgan kishilarning mustaqilligidan boshlanadi. Estetik va axloqiy

jihatdan yetarli tarbiya olmagan kimsa barkamol shaxs u yoqda tursin, umuman shaxs bo'laolmaydi.

Adabiyot predmetining vazifasi o'quvchilarni go'zallikdan hayratlanishga, lol qolishga, yomonlikdan, qabohatdan nafratlanishga, qiynalishga, o'rgatishdir. Yaxshi bilan yomon, go'zal bilan xunuk, halol bilan harom farqlanmaydigan jamiyat tanazzulga, inqirozga mahkumdur. Maktab adabiyoti har qanday odam uchun o'zini tanish vositasi, o'zini tanish esa, o'zgani tushunishdan boshlanadi. Shuning uchun ham adabiy ta'limning vazifalari sifatida: oddiy o'quvchidan kitobxon o'quvchi, kitobxon o'quvchidan o'qiganlarini anglaydigan o'quvchi, anglaydigan o'quvchidan o'qiganini tahlillay oladigan o'quvchi, tahlil qila biladigan o'quvchidan muayyan asar haqidagi fikrini og'zaki va yozma tarzda qiynalmay ifoda eta oladigan o'quvchi tarbiyalashdir deb belgilash mumkin. Adabiyot o'z oldidagi vazifalarni muvaffaqiyatli o'tashi uchun jamiyat oldida turgan bugungi talablar, vazifalar bilan chambarchas aloqada bo'lishi lozim.

Adabiyot predmetni o'rganish tufayli o'quvchilarda hosil qilingan tuyg'u, bilim, ko'nikma va malakalar ularning turmushiga, jamiyat hayotidagi ishtiroklariga xizmat etishi, o'quvchilarda sog'lom dunyoqarash, ezgu hayotiy pozitsiya hosil qilishi zarur.

Adabiyot boshqa predmetlardan farqi o'laroq, odam uchun faqat maktabdagi o'qish davridagina emas, balki umri mobaynida o'rganilishi zarurdir. Adabiyot yaxshi o'qitilsa, maktabga kelganida eplab jumla tuzaolmaydigan bola tilning ma'no nozikliklarini puxta egallab oladi. Yozma va og'zaki tarzda ravon fikr ifodalashni o'rganadi. Eng muhimi, unda pokiza ma'naviyat shakllanishi mumkin. Xulas, o'quvchilarning ahloqiy-estetik jihatdan komil bo'lib tarbiyalanishi adabiyotga ko'p jihatdan bog'liq va ularni shunday qilib tarbiyalash adabiyotning vazifasidir.

Bilim o'z holicha hali e'tiqod emas. E'tiqodga aylanmagan bilim foydalanilmay turgan imkoniyatdir xolos. Agar o'z vaqtida to'g'ri tarbiya ko'rmagan bo'lsa, juda ko'p bilimdon odamlar e'tiqodsiz qolaverishadi. E'tiqod odamning o'z fikriga, qilgan hatti-harakatiga axloqiy asos borligiga qat'iy ishonchi demakdir.

Adabiyot e'tiqodni tarbiyalash quroli hamdir. Adabiyot o'qitishning mazmuni, asosan, dasturda ifoda etiladi. Bundan tashqari darslik, o'quv va metodik adabiyotlar, ko'rsatmali qurollar, yordamchi vositalar ham ta'lim mazmunini tashkil etadigan unsurlardir.

Adabiyot dasturida sinfda nimalar o'rganilishi, qanday asarlar o'quvchilar tomonidan mustaqil o'qilishi belgilab beriladi. Shuningdek, adabiyot nazariyasi bo'yicha o'quvchi o'zlashtiradigan bilim hajmi, bog'lanishli nutqni o'stirishga oid mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar ham ko'rsatiladi. O'qituvchi dasturga ijodiy munosabatda bo'lishi lozim. Dastur rasmiy pedagogik hujjat, tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlangan huquqiy asos bo'lsa-da, hech qanday o'zgarishlarni tan olmaydigan aqida emas. Shu boisdan o'qituvchi o'quvchilarning xarakter xususiyatlarini, bilim saviyalarini hisobga olib, unga ayrim o'zgarishlar kiritishi mumkin. O'qituvchi mavzuli reja tuzishda dastur talablarini imkon qadar to'liq bajarish yo'lini o'ylash kerak.

Dasturda uchta asosiy narsa bor: a) dastur materiali; b) materialni o'rganish tartibi; v) mashg'ulot miqdori.

Dastur materiali, birinchidan, tarbiyaning talabiga muvofiq bo'lishi, ikkinchidan, bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, uchinidan, badiiy jihatdan yuksak bo'lishi kerak. Shu shartlarga amal qilinsa, taqdim etilgan badiiy material o'quvchilar tomonidan tez o'zlashtiriladi va ularning ma'naviyatiga kuchliroq ta'sir o'tkazadi.

Adabiy ta'lim mazmunini ifoda etadigan tushunchalar orasida adabiyot darsliklari alohida o'rin tutadi. Adabiyot darsliklari o'quvchilarga hamma narsani aytib beradigan yo'sinda emas, balki ularni o'ylashga majbur etadigan, muayyan aqliy va ma'naviy zo'riqishni talab qiladigan tarzda yozilishi zarur. Shundagina ular o'quvchilarni o'ziga rom etadi va ularning ishchi kitoblariga aylanadi. O'zbek maktablarida darsliklar ko'p vaqtlar mobaynida o'qituvchilar uchun ham yagona manba bo'lib keldi. Endilikda o'qituvchilar saviyasining pasayishiga olib keladigan

bunday holga chek qo'yish vaqti keldi. Shu bois o'qituvchilar uchun alohida didaktik ashyolar tayyorlash yo'lga qo'yilishi joiz.

Aytilgan didaktik ashyolar adabiyot o'qitishning asoslarini tashkil etadi.

Bevosita dramatik asarni o'qitish va tahlil qilishga o'tadigan bo'lsak dastlab dramatik asarlarning asosiy belgilarini:

Dramatik asarlar teatr va adabiyotga xos xususiyatlarning uyg'unlashuvini hisobga olish zaruriyati.

Dramatik asarlarni tahlillashda so'zning alohida o'rnini ko'zda tutish.

Drama asarlari tahlilida saxnaviylikni hisobga olish zarur.

Aslida dramatik asarlar tahlili ham xuddi epik va lirik turdagi asarlarni tahlil qilishga juda ham o'xshab ketadi. Ammo dramatik turdagi asarlar fakat o'qish uchun emas, balki asosan ko'rsatish, namoyish etish uchun ham yozilganligi sabab teatrda xos xususiyatlar hisobga olinishi, ya'ni yaratilayotgan vaqtidayok asarning spektaklga aylanishi ko'zda tutilishi joiz. Dramatik asarlar tahlili o'zgacha sinchkovlikni talab etadi. Aslida so'z va teatr san'atlarining omuxtasini bo'lmish dramani o'qish, idrok etish hamda tahlillash uchun muayyan darajada ko'shimcha zo'riqlash lozim bo'ladi. Kahramonlar va ularning tuyg'ulari, insoniy sifatleri haqida muallifning xarakteristikasi bo'lmagan sharoitda asar kahramonlari holati, ruhiyati va shaxsiyati borasida fikr yuritish, muayyan xulosalar chiqarish katta aqliy quvvat taqozo etadi.

Drama asarlari tahlilida asosiy e'tiborni kahramonning sa'jijasini ochishga qaratish lozim. Negaki, xar bir dramatik kahramon tabiati yuzasidan ularning o'z so'zlari, xatti-xarakatlari orqaligina fikr yuritish mumkin, bu ishda boshqa adabiy turlardagi singari muallif yordam berolmaydi. Dramatik asarlarni tulaqonli tahlil etish uchun teatr san'ati koidalaridan ham xabardor bo'lish zarur.

Dramatik asarni tahlilga jalb etishda o'quvchi bir qator qiyinchililarga duch keladi. Avvalo, dramatik asarning o'qilishi boshqa turdagi asarlardan tubdan farq qiladi va muayyan nazariy tayyorgarlikni talab etadi. Shu xildagi tayyorgarlik yuqligi uchun ham o'quvchilar ko'pincha dramatik asarlarni o'qimaydilar. Bordi-yu, sahna

asari o'qilgan taqdirda ham uni idrok etish, uning zamiridagi badiiy ma'noni topish oson kechmaydi. Chunki drama asarida muallif mutlaqo ishtirok etmaydi, uning pozitsiyasi biror yo'l bilan bayon qilinmaydi va asarda ro'y berayotgan to'qnashuvlarni ma'naviy jihatdan baholash hamda undan estetik xulosa chiqarish kitobxonning hayot tajribasiga, intellektual darajasiga, ma'naviy sifatlariga bog'liq bo'lib qoladi. Murakkablik yana shundaki, drama asarlarida voqea ham, tuyg'u ham yetakchi bo'lmaydi. Bu xil asarlarda xarakter asosiy o'rin tutib turadi. Chunki dramatik turdagi asarlar qanday janrda bo'lishidan qat'i nazar **dramatizmga** – ruhiy xavotir shiddati tasviriga qurilgan bo'ladi. Dramatik asarda qahramon uchun hayot-mamot ahamiyatiga ega bo'lgan qandaydir bir narsaning qo'ldan berilishi yoki amalga oshmay qolishi xavfi tasvirlangan bo'lishi kerak. Ana shundagina dramatik asar yuzaga chiqadi. Tahlilda ushbu nazariy talabga alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi.

Dramatik turdagi asarda qahramon nutqi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Negaki, muallif bayon qilishi ham, munosabat bildirishga ham, tasvirlashga ham xaqli bo'lmagan ushbu adabiy turda nutq deyarli barcha vazifani o'z zimmasiga oladi. **Monolog** shakli bilan tomoshabinlarga, **dialog** tarzida sahnadosh sheriklarga murojaat kilishning, voqealar rivojining, xarakterlar ochilishining vositasi bo'ladi. Shuning uchun ham dramada nutq alohida bir badiiy quvvatga ega bo'ladi. Tahlil mobaynida shu holat hisobga olinishi lozim. Dramatik nutqqa doir yana bir jihat shundaki, dramatik asar tili, albatta, bir qadar ko'tarinki aytilishi, jarangli eshutilishi aniq bo'lishi lozim. Chunki u sahnada ko'yilishi zarurligi, tomoshaxonaning turli burchaklarida o'tirganlarga eshutilishi uchun shunday xususiyatlarga ega bo'lishi joiz. Dunyodagi barcha dramatik kahramonlarning bir qadar sun'iyroq tilda so'zlashi va L.Tolstoy tomonidan tanqid qilinganligi sababi shunda. Drama kahramonlari kuyuk tuyg'ular, xissiyotlar bo'roni og'ushida yashaydilar, kuchli to'qnashuvlarni boshdan kechiradilar, keskin va ta'sirchan tilda so'zlashadilar, har qanday voqea-hodisaga keskin va kutilmagan munosabat bildirishga moyil bo'ladilar. Xuddi shunday

jihatlarni bilgan va hisobga olgan tahlilchigina dramatik turdagi asarlarning mag'zini chaqa oladilar.

Yana bir muhim jihat shundaki, **dramatik asarni** tahlil qilish boshqa-yu, shu asosda o'ynalgan **spektaklni** tahlil qilish tamomila boshqa narsadir. Chunki suz san'ati namunasi bo'lmish drama spektaklga aylangan teatr san'ati namunasi evriladi va o'sha san'atning qoidalariga muvofiq yashay boshlaydi. Rejissura, dekoratsiya, aktyorlar mahorati drama muallifining badiiy maqsadini tamomila o'zgartirib yuborishi mumkin. Ijro mobaynida drama matnidagi barcha nozikliklar yuqolib ketishi mumkin bo'lganidek, kuchli ijro tufayli o'rtamiyona bir asar tomoshabinda yuksak taassurot qoldirishi ham mumkin.

Agar dramatik turdagi asarlarning shu jihatlarini hisobga olgan holda ish yuritilsa, juda ta'sirchan tahlil qilishga erishiladi. Fakat, bizning nazarimizda, drama matni bilan tanishishdan oldin dramatik asarga xos sahna, parda, ko'rinish, monolog, dialog, luqma, remarka, prolog, epilog singari sahnaviy tushunchalar tug'risida to'lik nazariy ma'lumotga ega bo'lish kerak. Negaki, shu xildagi nazariy ma'lumotsiz sahna asarini tushunib ham, tahlil kilib ham bo'lmaydi.

Dramatik asarning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, drama badiiy hodisa hayot hodisasiga aylangan, kishining sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etish qudratiga ega bo'lgan yagona adabiy turdir. Dramada qahramonlar xarakteri voqelik tarzida, tomoshachining ko'z oldida namoyon bo'ladi va kuchli ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham drama asarlarini tahlil qilish anchagina murakkab yumushdir. Kuchli insoniy xarakterlar, to'qnashuvlaridan o't chaqnaydigan hayotiy ziddiyatlarning asosini topish, pesa qahramonlari ruxiy to'lg'oqlari bilan tanishtirish orqali kishida insoniy pozitsiya va ma'naviy qadriyatlar tizimi shakllantiriladi.

Kishidan ma'lum darajada hayotiy va madaniy tajriba bo'lishi, intellektual tayyorgarlik talab qiladigan dramatik asarlar bilan yoshlar kancha erta tanishsalar va ulardan tezroq baxramand bo'lishsa, ularning ma'naviyatini shakllantirish jarayoni shunchalik muvaffaqiyat bilan boradi. Ayrimlar g'oyat murakkab tuyg'ular, chigal insoniy taqdirlar tasvirlangan «Shoh Edip», «Qirol Lir», «Mirzo Ulug'bek»,

«Abulfayzxon» singari asarlarni idrok etish mushkul, ulardagi badiiy ma'noni, odamzotning ulkan dardlarini, iztiroblarini tushunish qiyin deyishadi. Bu xildagi «mehribonlik» odamni nafaqat aqlan, balki ma'nan ham yalqov, tanbal qilib qo'yadi. Agar odam o'z vaqtida xissiy tarbiya ko'rmasa, tuyg'ulari kamol toptirilmasa, o'n to'rt yoshida xam, qirq to'rt yoshida ham insoniy tuyg'ulardan, murakkab kechinmalardan bexabar yashab o'taverishi mumkin. Fikr qilish, his etish, tuyish ham boshqa har kanday insoniy ko'nikma va malakalar singari yoshlikdan shakllantirilishi lozim.

Masalan: «Shoh Edip» tragediyasi voqealar tragediyasi emas, insoniy xarakterlar fojeasidir. Muallif asarda **nima bo'ladi** degandan ko'ra, **qanday bo'ladi** degan savolga javob berishga ko'proq e'tibor bergan. Tragediya boshdan-oyoq qismatning qudratini, taqdirning inson ustidan cheksiz hukmronligini namoyish etuvchi voqealar asosiga qurilgan bo'lsa-da, Sofoklning bemisl mahorati tufayli asarda qatnashgan har bir kahramon pesa davomida o'zining chinakam qiyofasini to'liq ko'rsata oladi. Jahon adabiyotida Edip singari iztiroblar qiynog'ini tortgan, o'ziga bog'liq bo'lmagan holda gunohlar botqog'iga botgan va shu bois kechirgan azoblarining darajasi yanada baland bo'lgan boshqa kahramonni uchratish qiyin. Fojiadagi iztiroblar silsilasining dahshatli tomoni shundaki, asardagi qahramonlar bilib qilgan gunohlari uchun emas, balki qismatlari shundoqligi uchun azoblarga giriftor etiladilar. Sofokl uchun gunohning kim tomonidan, nima uchun va qanday amalga oshirilgani emas, balki qilingan gunoh va unga yarasha ajr masalasi muhimdir. Dramaturg inson va qismat munosabatlarini ko'rsatish jarayonida har bir alohida insonning o'z taqdiri bilan o'ziga xos tarzda, ma'naviy dunyosiga loyiq darajada uchrashganini haqqoniy aks ettira bilgan. Bilib-bilmay gunohga botildimi, undan tozalanish uchun xarakat qilish jarayonida har bir qahramon o'ziga xos yul tutadi va shu tarzda o'zining insoniy sifatlarini namoyon etadi.

Tragediya markazida turgan Edip – azaldan bezovta va g'amgusor qalb sohibi. U xech qachon sha'niga dog' tushiradigan ish qilmagan va shu bois: «Mening dilimdagi mudom tilimda», -deyishga xaqli. O'zga yurtdan kelib, taqdirning xoxishi va o'zining

tadbirkorligi tufayli bu yurtga hukmdor bo'lgan Edip qonuniy shoh Lay o'limida o'zining ishtiroki bo'lishi mumkinligini hayoliga ham keltirmaydi. Shuning uchun ham marxum Lay tomonidan noma'lum qotilga qarshi: «Mayli o'zim bo'lay xuntalab o'g'li», - deydi. Shunday odamga avliyo Tiresiyning: «Yurtga bu ofatni keltirgan - sensan», degan da'vasi daxshatli adolatsizlik bo'lib tuyulishi tabiiy, albatta.

Sofokl badiiy tasvir tarixida birinchi marta peripetiya deb ataluvchi usuldan foydalanadi va yuksak badiiy natijaga erishadi. Badiiy asar qahramonlari xarakterlarining ular istagiga mutlaqo zid natija berishi tasviri usuli peripetiyadir. Edip Layning xalokatiga chindan ham aloqasi yo'qligini isbotlashga, o'ziga nisbatan ayrimlarda paydo bo'lgan shubhani yo'qotish uchun qilgan har bir xarakati, aksincha, o'zining ham gumonini kattalashtirib qotilligini ayonlashtirib boraveradi. Iokasta tilidan Layning chorraxada o'ldirilganini eshitganda, Edip kungliga shubha urug'i tushadi. Voqealarning bundan keyingi rivoji mazkur shubha urug'ining tez ko'karib, mevalar berishiga imkon yaratadi. Kutilmaganda, o'zining Lay qotili ekanini bilib, ayovsiz iztirob iskanjasida qolgan Edip boshiga tog'dan ham og'ir falokat yog'iladi: u o'z otasini o'ldirgan padarkush, o'z onasiga uylangan zinokor va undan farzandlar ko'rgan badbaxt kimsa ekan!

Ayni Edipning, bir zamonlar Fivani balolardan xalos etgan shohning gunohlari tufayli yurtga ofat yog'ilishi va ofatlar sababchisini izlayotgan kishining o'zi sababchi bo'lib chiqishi tasviri asnosida Edip shaxsiyatiga xos yorqin va go'zal jihatlar inkishof etiladi. Edip shaxsiyatiga xos yorqin jarayonida vaziyatning og'irlashayotganini, haqiqatning oydinlashuvi uning zarariga xizmat qilishini bilsa-da, Edip cho'ponga: «Evox, sen aytishing, men tinglashim shart», - deydi. Bu o'rinda Edip taqdir qarshisida ojiz, lekin insof va adolatga sodiq kuchli shaxs sifatida gavdalanadi. Uning har bir gapi qanchalik azoblanayotganligini yorqin ko'rsatadi. Shohning hayot yo'llariga kiritgan har bir aniqlik uning yuragiga qadalgan xanjar kabi ta'sir etishi va uning daxshatli og'rig'i juda ishonarli tasvirlangan.

Edip – o'zini ayaydigan kishi emas. U – o'zlikni yenggan, manfaatidan ustun tura biladigan buyuk inson. Ayni vaqtda, Edip – tirik odam. Oddiy banda. Shu bois

qo‘rqadi, ikkilanadi. Shohning Iokastaga qarata: «Shubham borki, avliyo ko‘r emas», «qo‘rqaman, ortiqcha gapirvordim», -deya qilgan iqrorlarida uning shu xislatlari namoyon bo‘ladi. Edip shaxsiyatiga xos yetakchi fazilatlar: xalollik va vijdonlilik. Tabiatidagi boshqa sifatlar uning shu fazilatlariga mos. Shuning uchun Edip shiddat bilan o‘zini fosh etuvchi haqiqatning tagiga yetadi. Bu haqiqat – o‘limdan-da og‘ir, sharmandalikdan-da kir. Edipday inson shu xolat bilan kelishishga majbur. Buyuk sanaluvchi insonning naqadar ojiz ekani mazkur xolat tasvirida butun ayanchli jihatlari bilan namoyon bo‘ladi:

Tamom, bari ayon! O, yorug‘ jahon,
So‘nggi bor ko‘rmoqda ko‘zlarim seni,
Hayot – xarom, nafas – xarom, nikoh – xarom
Qonga bulg‘anganman, jirkanchman, jirkanch!

Haqiqat onlarinining butun daxshati o‘zining nihoyasiz zalvori va cheksiz ko‘lami bilan kishini bosadi. Edip – yirik shaxs. Shu bois ham o‘zini gunohiga yarasha jazolay oladi. qismat tufayli qilingan gunoh uchun o‘z ihtiyori bilan ajr beradi: ko‘zlarini ko‘r qiladi! Jazoning salmog‘i ham gunohning ko‘lamiga yarasha. Edip tushgan sharoitda o‘lish - qutulish, yashash – jazo demak. Azob insonni g‘ussaga olib keladi, g‘ussa chekish poklanish yo‘lining boshlanishidir. Edip adoqsiz poklanish sari yul oladi. Edipning o‘ziga bergan jazosi laxzalik qaror natijasi emas. Halol va vijdonli odam aqli va tuyg‘ularining hukmidir:

U dunyoda otam-onam yuziga
Qanday boqdim – ko‘zlarimni o‘ymasam?
Badbaxt onam mendan tuqqan bollarga
Qanday boqdim – ko‘zlarimni o‘ymasam?
...Yurtga qonli dog‘ tushirgan qotilni
Yo‘q o‘ilishga uzim farmon berganman.
Endi esa fuqaroning ko‘ziga

Qanday boqdim – ko‘zlarimni o‘ymasam?

Yo‘q! Bu ham kam. Qo‘lim bo‘lsa baquvvat...

Qulog‘imning pardalarin yirtardim...

Edip kiynoklardan zorlanmaydi, yengillik bulishini xayol xam kilmaydi. U – sunggi damgacha yurt kaygusi bilan yashay oladigan inson. Shu sabab oxirgi damda:

Men badbaxt boshimni olib ketaman,

Toki xudolarning qaxru g‘azabi

Yurtimga yog‘ilmasin, - deya fivaliklarni ofatlardan xalos etishga urinadi.

Asardagi boshqa qahramonlar ham fojia-navis tomonidan juda puxta ishlangan. Xususan, Iokasta, Kreont, Tiresiy obrazlari badiiy barkamolligi tufayli xanuzgacha ham estetik qimmatini yo‘qotmay kelmoqda. Iokasta – avvalo ayol. Onaga, ayolga, xotinga xos barcha xususiyatlar unga ham begona emas. Iokasta ham hamma ayollar singari, avvalo, ro‘zg‘orining tinch, yaqinlarining betashvish bo‘lishini istaydi. Uning uchun oliy haqiqatga yetishdan ko‘ra, oila butunligini saqlab qolish muhimroq. Elchi bilan Edipning suhbatidan erining aslida kim ekanini erkaklardan oldinroq sezib qolgan farosatli Iokasta: «Bari bir emasmi? Muncha yonmasang...», - deya iltijo qiladi. Eriga qarata: «Bilmaganing yaxshi zotingni, sho‘rlik!» - deb yozg‘irganda ham, butun haqiqatni bilgach, sir bermay, Edip va elchi yonidan ketib qolganida ham chinakam ayol, oilasi tinchini o‘laydigan mehribon xotin sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z o‘g‘liga xotin bo‘lganini, bolasidan farzandlar tuqqanini bilgan Iokasta bir ayol qilishi mumkin bo‘lgan ishni qiladi: o‘zini osadi! Iokasta shaxsiyati Edip shaxsiyati singari ko‘lamdor emas. Shu bois xam u Edip singari chora ko‘rishi yoki sunggi damda yurt tashvishini o‘ylashi mumkin emasdi. Sofokl bu xolni buyuk san‘atkorlik bilan ifoda eta bilgan.

Dramaturg qahramonlari ruhiyatini eng nozik jixatlarigacha bexato ko‘radi va yorqin tasvirlay biladi. Sir ochilgach, Iokastani izlayotgan Edipning fojiona xolati tasviri daxshati shunday beriladi:

Tig‘ sudrab kimnidir surishtirdi u,

Qani xotinim, deb ayta olmasdi,

Ayta olmas edi, qani onam deb...

Edipning Kreontga qarata: «Uni..., Uydagini... o‘zing dafn etgil, O‘zing bil... bu sening qondoshlik burching», - deya qilgan iltijosida qahramon ruxiyatidagi adoqsiz g’am, cheksiz xijolat juda ingichka, nozik tasvirlanganki, bu satrlarning yigirma besh asr oldin bitilganiga odam ishonmaydi. Ayni bir xolatdan bir-biriga zid ikki xil ma’no chiqarish, bir vaziyatdan qarama-qarshi xulosalarga kela bilish «Shoh Edip» asarida yuksak san’at darajasida xal etilgan. Edipning qizlari bilan xayrlashuvi saxnasi bu jihatdan aqlni lol qoldiradi:

Qaydasiz, qizlarim, yaqinroq keling
Ilk bor aka bo‘lib... qo‘l cho‘zay sizga,
...Yoningizda turgan shu badbaxt ota
Ko‘rmasdan, bilmasdan... sizni olamga
Keltirib qo‘ydi-ku... o‘z onasidan...
Otangiz – padarkush, onangiz esa –
Sizni o‘z o‘g‘lidan tuqqan qabohat.

O‘z qizlariga aka bo‘lib qul uzatishga, onasidan farzand ko‘rishga majbur bulgan odam qismatining daxshati o‘kuvchilar vujudini larzaga soladi.

Sofokl mazkur tragediya orqali odamlarga nasixat qilmaydi, yo‘l ko‘rsatmaydi. U asaridan xulosa chiqarishga ham xech kimni undamaydi. Lekin badiiy xaqiqatning daxshatli qudrati o‘quvchini o‘yga toldiradi. Sofokl hayotning murakkabligi, inson taqdirining chigalligini butun shafqatsizligi, go‘zal va jirkanch taraflari bilan ko‘rsatib bergan. O‘zini dunyoning xo‘jasi deb xisoblovchi odam, aslida, o‘z qismatiga ham xo‘jayin bo‘lolmasligi xaqqoniy aks ettirilgan. «Shoh Edip» fojiasining mohiyati inson umrining, u erishgan martabalarining o‘tkinchi ekanligi, odam umri imtihon uchun berilganini anglatishda namoyon bo‘ladi. Bu asar kishini o‘zi, o‘zgalar, odam, olam haqida o‘ylashga undaydi. Edipni qanday baholash kerak? Qanday odam o‘zi? Fojia kitobxonni ta’sirlantirish, tuyg‘ularini junbushga keltirishi xech gap emas.

2.2. Behbudiy hayoti va ijodini o'rgatishning samarador usullari

«O'zbek adabiyoti tarixi» uzoq yillik tarixga ega bo'lib, XX-XXI asrlarda o'zbek adabiyoti yangicha yo'nalishlar asosida taqqiy etdi. Jadidchilik harakati ham adabiyotimiz taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan Behbudiy, A. Avloniy, Fitrat va Cho'lponlarning ijodi adabiyotimiz taraqqiyotida o'ziga xos o'rinni egallabgina qolmay, o'zlikni anglash, milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib etganligi bilan ham e'tiborga loyiqdir.

Behbudiy 1875 yilda Samarqandda muftiy oilasida tug'ilgan. Yoshligidanoq Arab, Turkiya, Orenburg, Qozon, Moskva, Peterburg safarlarida bo'ldi. U jadidchilik harakati namoyandalaridan bo'lib, Samarqandda yangi usuldagi maktablar ochdi, 1913 yilda «Samarqand» gazetasi va «Oina» jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo'ldi, 1911 yilda «Padarkush» dramasini yozib, o'zbek dramaturgiyasiga asos soldi. Behbudiy 1918 yil o'rtalarida «Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi» ga maorif xalq komissari bo'ldi. Turkistonning davlat tili to'g'risidagi dekret loyihasini tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdi. «Nashriyoti Behbudiya» nomli nashriyot ochdi. U 1919 yilning bahorida Buxoro amirining Shahrisabzdagi kishilari tomonidan hibsga olinadi va «sho'roning ayg'oqchisi, jadid, sho'roga sotilgan» degan ayblar bilan Qarshi shahrida qatl etiladi. Behbudiy qabrining qaerdaligi noma'lum.

«Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz», degan edi Behbudiy vasiyatnomasida. Behbudiy haqli ravishda o'zbek matbuoti hamda pedagogikasining asoschisi sanaladi. «Zarafshon» gazetasi 1922 yilda Behbudiyni «nashri maorif to'g'risida vatanimizning birinchi qahramoni» deyishi bejiz emas. O'z davrining Xoji Muin, Fitrat, Sadriddin Ayniy, Cho'lpon kabi san'atkorlari Behbudiy o'limiga marsiyalar bag'ishladilar.

Asarlari: «Padarkush», «Turkiston idorasi», «Turkistonda maktab jarida», «Ehtiyoji millat», «Yoshlarga murojaat», «Ikki emas to'rt til kerak», «Aholi

jo`g`rofiyasiga kirish», «Bolalar uchun kitob», «Rusiyaning qisqacha jo`g`rofiyasi», «Islom qisqacha tarixi», «Buxoro xonligiga sayohat», «Feleton» va boshqalar.

Behbudiy hayoti va ijodini o`rgatish bo`yicha dars namunalari.

DARS REJASI:

1. Behbudiy - ma`rifatparvar. O`zbek pedagogikasining asoschisi sifatida.
2. Behbudiy – o`zbek matbuotining asoschisi (publitsist).
3. O`zbek - dramaturgiyasining asoschisi.
4. “Padarkush” dramasida ilm-ma`rifat g`oyalarining targ`ib etilishi.

ADABIYOTLAR:

1. M.Behbudiy. “Padarkush”. “Sharq yulduzi”, 1989. 7-Son.
2. “XX asr o`zbek adabiyoti tarixi” (darslik). - T.: O`qituvchi, 1999.
3. Solih Qosimov. Behbudiy va jadidchilik, “O`zbekiston adabiyoti va san`ati”, 1990 y. 19 yanvar.
4. O`zbek adabiyoti. 11-sinf uchun darslik, “O`qituvchi”, T.: 1995 y.

MAVZU BAYONI :

XX asr boshlarida Turkiston jadidchiligiga asos solgan va Turkiston jadidlarining “otasi” deb nom olgan Mahmudxo`ja Behbudiy singari favqulodda iste`dod sohiblarining hayoti va ijodini o`rganishning alohida ahamiyat kasb etganligi.

Behbudiyning dramaturg, pedagog, publitsist, yirik olim va jamoat arbobi sifatida maydonga chiqishi va xalqni ma`rifat orqali milliy uyg`onishga da`vat etishi. Behbudiyning Istambul, Misr, Moskva, Peterburg, Qozon, Orenburg shaharlarida bo`lib, u erdagi maorif va matbuot sohasidagi yangiliklarni o`rganish va o`zining ham dunyoviy ilmlarini o`qitishga asoslangan yangi usuldagi maktablar ochib, mazkur maktablarga mo`ljallab yangi dasrliklar yaratishi. O`lkada jadidchilik-

ma`rifatchilik harakatining keng yoyilishida Behbudiyning xizmatlari. Behbudiyning jurnalistik faoliyati, publitsistikasi. O'zbek publitsistikasini o'z davrida yangi bosqichga ko'targan maqolalarining xalqimiz tafakkuri taraqqiyotida salmoqli o'rin tutganligi. Behbudiyning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy sohadagi ilgor qarashlari bilan zamondoshlaridan ilgarilab ketganligi. Behbudiyning mustabid tuzum tomonidan qatl etilishi.

“Padarkush” - birinchi o'zbek milliy dramasi. Asarning yaratilishi tarixi. Behbudiyning jadidchilik harakatiga, uning dasturiga butun ijodi bilan, ayniqsa “Padarkush” dramasi bilan mustahkam poydevor qurib berganligi. Dramada mustamlakachilik siyosati tufayli asrlar davomida jaholatda, qullikda, mu`telikda yashab kelgan xalk fojiasining aks ettirilganligi. Dramadagi etakchi obrazlar. O'zbek dramaturgiyasining shakllanishida bu asarning roli: A.Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Mirmuxsin Fikriyning “Befarzand Ochildiboy”, Hamza Hakimzodaning “Yangi saodat” kabi asarlarining yaratilishida mazkur dramaning samarali ta`siri. Dramaning badiiy xususiyatlari. Dramaning adabiyotshunoslikdagi talqini. Dramaning milliy o'ziga xosliklari.

Mustahkamlash savollari:

1. XX asr o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixida Behbudi qanday o'rin tutadi?
2. Behbudi Turkistondagi jadidchilik harakatiga qanday ulush qo'shdi?
3. Behbudiyning hayoti va ijodi.
4. Behbudi publitsistikasi.
- 5.”Padarkush” dramasi yaratilishi va sahnalashtirilishi.
6. Dramada qanday g'oya ilgari surilgan?
7. Toshmurod timsoli sizda qanday taassurot qoldirdi?
8. Domullo, Ziyoli obrazlari orqali muallif nima demoqchi bo'ladi?

Tayanch tushunchalar:

1. Jadidchilik harakati va uning ahamiyati.

2. Xalqni ma`rifat orqali milliy uyg'onishga da`vat etish Behbudiy faoliyatida tayanch tushuncha hisoblanadi.

O`quv mashqlari – ta`limning yangi metodi

Bolalar yoshligidan turli mashqlar bilan shug`ullanib keladilar. Mashq – bolalarning hayotiy ehtiyojiga aylangan soha desak xato qilmagan bo`lamiz, chunki mashqning bola tarbiyasidagi o`rni, uning tarbiyaviy ahamiyati katta. Mashq yosh tanlamaydi, deyiladi. Haqiqatan ham, qaysi yoshdagi kishiga biror mashq taklif etilsa, imkoni boricha unga qatnashish xohishini bildiradi. Mashq – faqat mashqning o`zginasi emas. Mashq ta`lim – tarbiyada juda boy imkoniyatlarga ega vosita hamdir.

Mashqni yangi pedagogik texnologiyaning eng samarali usullaridan biri sifatida tan olinishi ham uning muhim usul ekanligidan dalolat beradi. Hozirda mashqli texnologiyalar haqida ko`p ma`lumotlar bor. Ko`plab olimlarning bu sohadagi asarlari chop etilgan. Bu kitoblarda mashqli texnologiya imkoniyatlaridan ta`lim–tarbiya sohasida keng foydalanishning metodikasi ishlab chiqilgan. Ayniqsa, fanlarni maktabda va oliy o`quv yurtlarida o`quvchi – talabalarga tushuntirishda uning cheksiz imkoniyatlari borligi ta`kidlanayapti.

Mashqli texnologiyadan foydalanishning asosini talabalarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi.

Mashq olimlar tadqiqotlariga ko`ra, mehnat va o`qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta`kidlashlaricha, mashqli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o`zini namoyon qilish, hayotda o`z o`rnini barqaror qilish, o`zini o`zi boshqarish, o`z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

Mashq ijtimoiy tajribalarni o`zlashtirish va qayta yaratishga yo`nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxs o`z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta`rificha, mashq shaxsga xos bo`lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir.

L.S. Vigodskiy mashqni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o`zlashtirish vositasi sifatida ta`riflaydi.

A.N. Leont`ev mashqga shaxsning hayolotidagi amalga oshirib bo`lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta`kidlaydilarki, mashqga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog`liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun mashq o`ziga xos bo`ladi.

Mashqli faoliyat muayyan funktsiyalarni bajarishga bag`ishlangan bo`ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o`z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv;

Tadqiqotchilar nazariy aspektida mashqga faoliyat, jarayon va o`qitish metodi sifatida qaraydilar.

Mashq faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni taxlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub`kt sifatida o`z imkoniyatlarini to`la amalga oshiradi.

Mashqli faoliyatni motivatsiyalash mashq xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o`zini namoyon qila olishi, o`z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida mashq tuzilmasi (G.K. Selevko ta`biricha) quyidagilarni qamrab oladi.

- o`ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo`lgan mashq harakatlari;
- predmetlarni, ya`ni haqiqiy narsalarni shartli, mashq narsalari o`rnida qo`llash;

- mashq bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi. Mashqlar turli maqsadlarga yo`naltirilgan bo`ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo`llanadi.
- mashqning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko`nikmalarni qo`llash, umumta`lim malaka va ko`nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko`nikmalarini rivojlantirish va kengaytirishga qaratilgan bo`ladi.

A.Tyukov fikricha, har qanday mashq qay tarzda loyihalashtirilishidan qat`iy nazar, ularning har biri quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- kasbiy doira imitatsiyasi yaxlitligi, mashq imitatsiyasiga taalluqli bo`lgan tuzilma va jarayonlar asosiy voqelikni aks ettiruvchi umumiy syujet yoki asosiy mavzuga ega bo`lishi lozim;
- mustaqil tashkil etishga yo`nalganligi;
- o`qitishning muammoligi.

A.A. Tyukov mashq davriyligining quyidagi bosqichlarini qayd qiladi:

- vaziyatni va muammolashtirishni tahlil qilish asnosida mashqning asosiy syujet mavzusi bo`yicha mashq ishtirokchisining sermahsul mustaqil ijodiy ishi;
- amaliy guruhlarining ish natijalarini umumiy tanqidiy muhokama qilish;
- mashq jarayoni va ishtirokchilar hatti-harakatlarini reflektiv tahlil qilish;
- echimni tashkil qilish bosqichi.

Ya.S. Ginzburg va N.M Koryak mashqning quyidagi sotsial-psixologik xususiyatlarini farqlaydi:

- guruh xarakteri;
- yaratuvchilik, shartlilik;
- ramziylik, utilitar bo`lmaslik xarakteri.

Har qanday mashq zahirida umumiy qabul qilingan ta`lim printsiplari, taktikasi yotishi kerak. O`quv mashqlarini yaratish murakkabligini hisobga olgan holda har bir

yaratilgan o`quv mashqi barcha arab tili o`qitiladigan maktab, litsey, institutda qo`llash uchun mos bo`lishi kerak. O`quv mashqlaridagi materiallar mazkur kurs rejasiga to`g`ri kelishi kerak hamda o`sha kurs darsligi mazmuniga mos tushishi kerak. O`quv mashqlariga o`quv predmetlari asos qilib olinishi kerak.

O`quv mashqlarini tayyorlashda darslikdagi ma`lumotlar mashq shakliga keltiriladi. O`quv mashqlari talabalarning darsda olgan nazariy bilimlarini amaliy ko`rinishdagi varianti deb aytsa bo`ladi. Bu “sinov maydoni”da sinash va sinalishga tayyor bo`lish uchun talaba o`tilgan barcha o`quv mavzularini mukammal o`zlashtirgan bo`lishi lozim. O`quv mashqlari jarayonida talaba oddiy darsga qaraganda bu mashqga qiziqibroq yondoshadi va bemalol faoliyat ko`rsatadi.

Har bir oliy o`quv yurtida talabalarga qo`yiladigan asosiy talab – mutaxassisligidan ularda malaka va ko`nikma hosil qilishdir. Ayni o`quv mashqlari ana shunday malaka va ko`nikma hosil qilish vositasi, payti hisoblanadi.

Qidiruv ekspeditsiyasida shunday naql bor: “Ryukzakka ishlatiladigan – asqotib qoladigan narsani emas, balki usiz biror ish bitmaydigan narsalarni ol!” (Beri v ryukzak ne to, chto mojet prigodit`sya, a to, bez chego sovershenno nevozmojno oboytis`!). Tibbiyot institutida o`quv mashqlari jarayonida talabalar mulyaj shaklidagi “kasal”ni xohlaganlaricha “operatsiya” qilib, uning ustida turli tajribalar – eksperimentlar o`tkazishlari mumkin.² Lekin tilni o`rgatishda talaba eksperiment qiladigan mulyaj yo`q. Mashqga yaxshi tayyorgarlik ko`rmagan talaba mashq talablariga javob bera olmaydi va u bu mashqni ijobiy yakunlanishiga putur etkazishi mumkin. Pedagogik tajribalar har qanday ta`lim usulini ilmiy asosga ko`taradi. Unga fikrlashning ob`ektiv baholash usuli deb qarash mumkin. Shuning uchun pedagog eksperiment qilish yo`llarini egallashi muhim vazifadir. Alohida ta`kidlash lozimki, mashq avvalo o`qitishning bir usulidir. U talabalarni nazorat qilish quroli, imtihon yoki talabalar uchun jazo emas.

Xuddi shu ma`noda mashqni yaratuvchi va olib boruvchi o`qituvchini shogirdlarini murakkab musobaqalarga tayyorlovchi murabbiy-trenerga qiyos qilsa

² Naumov L.B. Uchebnye igrы v meditsine T. 1986

bo`ladi. U o`z shogirdlarini kelajakdagi musobaqalarda uchrashi mumkin bo`lgan maksimal qiyinchiliklarni engishga o`rgatadi. Ustoz talabalarda shunday ko`nikmalarni tarbiyalagandagina ular har qanday sinovlarda yaxshi natijalarga erishishlari mumkin. O`qituvchining talabalarda keyinchalik har qanday kasbiy qiyinchiliklarni engib o`tishdek malakalarni tarbiyalashi kelgusida yaxshi mutaxassis bo`lib etishishlari uchun asos bo`lib xizmat qiladi (“Mashqda qiyin bo`lsa, jangda engil bo`ladi” maqoliga asosan).

Mashqda ishtirok etmoqchi bo`lgan talaba albatta unga tayyorgarlik ko`rish etapini o`tishi lozim. Mashqga ekspromt usulida birdaniga kirishib bo`lmaydi.

Tajriba shundan dalolat beradiki, har qanday tayyorgarlik ko`rilmay o`tkazilgan mashqda uning ishtirokchilarining malakasi va yoshidan qat`iy nazar ular o`ng`aysiz holatga tushib qoladilar. Shuning uchun mashqni o`quv amaliyotiga tadbiq qilishdan avval quyidagi pedagogik-psixologik masalalar hal etilishi zarur. Har bir talaba mashqga tayyorgarlik ko`rayotganda quyidagilarni bilishi lozim:

- mashqning maqsadini;
- mashqning vazifasini;
- mashqning rejadagi qaysi mavzuga taalluqliligini;
- avvalgi mashqlarda shakllangan malaka va ko`nikmalarni keyingi mashqlarda ham qo`llay olishi.

O`quvchi va talabalar uchun shunday texnologik mashqlar yaratish kerakki, ular shogirdlarda qiziqish uyg`otsin, ularning ehtiyojlarini qondirsin, ularga tezda singadigan bo`lishi lozim. Har qanday mashqni o`quvchilar ko`rigidan muvofaqiyatli chiqishi maqsad qilinadigan bo`lsa, albatta eksperiment-tajriba, kuzatish olib borilishi zarur. Bunday jarayonda qaysi mashq o`quvchilar talablariga mos kelgan, kelmaganligi aniqlanadi. O`quvchilar e`tiborini qozonaolmaydigan “sun`iy mashqlar” shogirdlar vaqtini behudaga olmasligi kerak. Shuning uchun muayyan talabalar guruhi yoqtiradigan mashqlarni, ularning yuraklarini haqiqiy jizzillatadigan mashqlar topmoq lozim. Bu mezonga to`g`ri keladigan mashqlar darajasini o`qituvchi tomonidan o`tkaziladigan tajribalar aniqlab beradi. Sinab ko`rilmaguncha

mashqning talabalarga mos yoki mos emasligini aniqlab bo'lmaydi. Har bir o'qituvchi muayyan mashqlardan foydalanayotganida tanlash erkinligiga ega ya'ni, shu mashqga o'xshatish yoki butunlay boshqa variantini izlab topish huquqiga ega. Bu esa o'qituvchining harakatiga bog'liq.

O'quvchilarga shu kabi ma'lumotlarni etkazishda «**Sirli rishta**» mashqidan foydalanish mumkin. Mashqning boshida o'qituvchi bu mashqning vazifasini tushuntiradi. Mashqga avvaldan tayyorgarlik ko'riladi. Mashqga kerak bo'lgan 4-5 xil rangdagi iplar hozirlanadi. Masalan, 10 ta qizil rangdagi ipning har biriga bittadan jami 10 ta Behbudiyning hayoti va ijodiniga oid savollar yozilgan karton yoki qalin qog'oz ulab qo'yiladi. 4 xil ipga 10 tadan savol yozilgan qog'oz bilan birlashtirilsa, jami 40 ta savollar to'planadi. Iplarning ikkinchi uchi tortish uchun tayyorlab qo'yiladi. Savollar yozilgan qog'ozlar did bilan yasalgan bir qutining ichiga joylashtiriladi. Mashq boshlanadi. O'quvchilar stol ustidagi qutidan chiqib turgan 4 xil rangdagi iplarning to'rtala xilidan bittadan tortadilar va ana shu 4 ta savolni olib joylariga o'tiradilar va ular o'z guruh a'zolari bilan har bir savolning javobini topish, mushohada qilish va uni sharhlab berish uchun tayyorgarlik ko'radilar. Agar tortilgan ipning o'rtasida tugun bo'lsa, o'sha guruh 5 ball yo'qotgan bo'ladi. Agar javob berish jarayonida har bir savolning javobi alohida ma'lumotlar bilan to'ldirib borilsa, bu ish maqtovga sazovor bo'ladi.

Mazkur mashq – darsning maqsadi – o'quvchi, talabalarning avval berilgan materiallarni qanday o'zlashtirganliklarini sinashga qaratilgan. Bu usuldagi sinovni har bir o'quvchi uchun yoki guruhlariga bo'lib ham o'tkazsa bo'ladi. Mashqning oxirida o'qituvchi unga yakun yasaydi va guruhlarini baholaydi.

“Mezon” mashqi

Bu mashq, asosan, talabalar faoliyatini oshirishga hamda sust talabalarni faollashtirishga qaratilgan. Mashq texnologiyasi quyidagicha: bu mashqda asosan tarozi kerak bo'ladi. Tarozi stolning ustiga balandroq joyga o'rnatiladi. Talabalarga avvaldan tayyorlangan Behbudiyning hayoti va ijodiga oid savollar yozilgan karton qog'ozlar tarqatiladi. Qog'ozlarning og'irligi savollarning oson-qiyinligiga bog'liq

bo`ladi. Savol engil bo`lsa, qog`oz ham o`shanga bog`liq holda engil bo`ladi. Agar savol qiyin bo`lsa, qog`ozning vazni ham og`ir bo`ladi. Mashq boshlanadi. Ikkiga bo`lingan guruh a`zolari navbat bilan bitta oson, bitta qiyin savol olib, belgilangan muddatda savollarga javob yozib, tarozining o`zlari tanlagan pallasiga qo`yadilar. Savolga javob berib bo`lgan guruh navbatdagi savolni olaveradi, toki tarozining mili (strelkasi) aytilgan gramm yoki kilogrammga etguncha. Kim tezroq o`sha og`irlik nuqtasiga birinchi bo`lib etib borsa, o`sha g`olib bo`ladi. Lekin ba`zan durang hisob chiqishi mumkin. Unda o`qituvchi har bir guruhga bittadan murakkab savol beradi. Kim agar birinchi bo`lib mashqni tugatsa va tekshirilganda javoblar bexato chiqsa, o`sha guruh tolibi g`olib deb topiladi.

XULOSA

Shunday qilib, umumta'lim maktablarda Behbudiy hayoti va ijodini, dramamatik asarlarni o'quvchilarga o'rgatish jarayonida asar tilining tushunarli bo'lishiga, o'quvchilarning yoshini va saviyasini hisobga olish zarur. Dramatik asar tilining o'ziga xos qiyinchiliklarini nazarda tutgan holda asarning mazmuni bilan tanishtirib borish lozim.

Behbudiy jamiyat taraqqiyoti haqida qanday muammolarni ko'tarib chiqmasin, hammasida tub asos qilib oila bilan maktab o'rtasida yaxshi aloqalarni yo'lga qo'yish yoshlar ta'lim-tarbiyasining negizi deb biladi. Busiz bola tarbiyasini ko'ngildagidek rivojlantirib bo'lmaydi. Mazkur muammo hamon kun tartibida turgan eng dolzarb masala ekanligi bilan ham o'z qimmatini saqlab qoladi. Istiqlolimizni mustahkamlash borasidagi kurashlarimizda biz bu masalani hamisha diqqat markazda saqlab turamiz. Yoshlarimizni buyuk ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy meros, eng ilg'or milliy an'analarimiz zaminida, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bundan keyin ham birinchi darajali masalalardan bo'lib qoladi, uni hal etishda Behbudiy va uning safdoshlari ma'naviy me'rosi bizga ko'mak beradi.

Behbudiyning ma'rifatparvarlik g'oyalariga naqadar sodiq bo'lib qolganligi, hatto shu yo'lda halok bo'lsa, uni sharaflı o'lim deb atashini «Padarkush» dramasi misolida ko'rib chiqdik.

«Padarkush» asari xotimasida ziyoli sahnadan odamlarga qarab: «Ilmsiz va tarbiyasiz bolalarning oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o'qitsa edi, bu jinoyat va padarkushlik sodir bo'lmas va bular ichkilikni bo'yla ichmasdi», deydi.

Ko'rinadiki, dramada hayotiy voqea va ziddiyatlar ko'rsatilib, nodonlik va jaholat qoralangan. Ilmsizlik va maishatbozlik, axloqsizlik tanqid qilingan. Ilm-ma'rifatni egallash g'oyasi targ'ib-tashviq etilgan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» asari o'z navbatida o'zbek dramaturgiyasining shakllanishiga, xususan, bunda ma'rifatparvarlik an'analarining qaror topishiga samarali ta'sir etdi. Natijada Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, A.Badriy, Hoji Muin Shukurullo, Tavallo kabi

yozuvchilarning ma'rifatparlik ruhida yozilgan asarlari birin-ketin yuzaga kela boshladi. Bitta fakt. Behbudiyning «Padarkush» pesasida ilmning ahamiyatini tan olmagan nodon boy ota fojiasi ko'rsatilgan va boylikka ega bo'lish o'z otasini o'ldirgan bola obrazi yaratilgan bo'lsa, Hamzaning «Yangi saodat» asarida o'qib, ilm olib otasi Abduqahhor boyvachchani halokatdan qutqargan bola obrazi tasvirlangan.

Umuman olganda Behbudiyning «Padarkush» dramasi ko'p hollarda yosh yozuvchilarga sahna asarlari yaratishda o'rnak va turtki bo'lib xizmat qildi.

Buyuk adib Abdulla Qodiriy o'zining «Tarjimai holida» «1913 yilda chiqqan «Padarkush» pesasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborganimni o'zim ham payqamay qoldim», deb qayd etgan edi. Taniqli jadid yozuvchisi Hoji Muin Shukurullo 1914 yilda «Padarkush» spektaklini ko'rib undan juda qattiq ta'sirlangan. Hoji Muin «Shundan keyin men shoirlikni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, sahna adabiyoti yaratish fikriga tushdim»,¹-deb yozgan edi. Bu yozuvchining «To'y», «Ko'knori», «Mazluma xotin», «Eski maktab-yangi maktab» kabi sahna asarlarida Behbudiyni ta'siri seziladi.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, Behbudiyni o'zbek dramaturgiyasini boshlab berish bilan birga, o'zbek teatrshunosligiga ham asos solgan. Behbudiyni mamlakatimizda birinchilardan bo'lib teatrning muhim tarbiyaviy-estetik ahamiyatini chuqur idrok etgan. Teatr san'atining xalqimiz ma'naviy-madaniy hayotida mustahkam o'rin egallashi, Turkistonda milliy teatr yaratish uchun jonkuyarlik qilgan. «Teatr nadir», «Samarqandda teatr», «Turkistonda birinchi teatr», «O'ynayturg'on odam yo'qdir», «Padarkush» vajhidan», «Teatr musiqiy, she'riy» singari maqolalar yozib teatr san'atini izchil targ'ib-tashviq qilgan. Bu san'atning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari haqida yurtimizda birinchilardan qimmatli fikrlarni bayon etgan.

Xullas, Mahmudxo'ja Behbudiyni xalqparvar, ma'rifatparvar va vatanparvar ijodkor sifatida o'zbek dramaturgiyasining tamal toshini qo'yish uni shakllantirish sohasida izchil izlanishlar olib borgan. Birinchi milliy drama-«Padarkush»ni

¹ O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 1999 y, 17 dekabr.

yaratgan. Behbudiyning ma'rifatparvarlik sohasidagi boshqa xayrli xizmatlari bilan bir qatorda, dramaturgiya sohasidagi say harakatlari ham tahsinga loyiqdir.

Yuqorida biz yangi davr dramaturgiyasi haqida ham so'z yuritdik. Darvoqe, matbuotda «Lekin dramaturgiya davr talablaridan ortda qolyapti. Maishiy muhitni tasvirlash kuchaydi. Tarixiy asarlarni sahnaga olib chiqishda tarixiylik mezonlari buzilib, davrning haqiqiy manzarasi shoshma-shosharlik bilan bir yoqlama ko'rsatilayotir»¹-deb yozildi. Bu tanqidiy fikrda muayyan darajada haqiqat bor.

Demak, har bir davr dramaturgiyasining katta yutuqlari bo'lganidek, uning o'ziga xos muammolari va haligacha yetarli ravishda bajarib ulgirmagan vazifalari ham mavjud. Biroq, shunga qaramay, dramaturgiyamizning kelajagi yanada yaxshi bo'lishiga umid va yetarli asos bor.

¹ ¹ O'zbekiston adabiyoti va san'ani gazetasi, 1999 y, 17 avgust.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, «O'zbekiston», 1994 yil.
2. Karimov I.A. Yoshlarimiz –xalqimizning ishonchi va tayanchi.-T.: Ma'naviyat. 2006. 13-bet
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. .-T.: Ma'naviyat. 2008. Asqarova M, Qosimova K. “ona tili” (5 – sinf uchun darslik) Toshkent 1996
4. O'zbekiston Respublikasi Farmoni «Xalq so'zi» gazetasi 1998 yil 29-oktyabr.
5. Behbudiy. «Padarkush» dramasi. «Sharq yulduzi» jurnali 1989 yil 7-son.
6. Qosimov Begali, Yusupov Sharif va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent. «Ma'naviyat» 2004.
7. Aliyev Ahmad Istiqlol va adabiy meros. Toshkent «O'zbekiston» 1997y.
8. Said Ziyoy. Tanlangan asarlar Toshkent 1974 y.
9. Xo'jayev Fayzulla. Tanlangan asarlar. 1-Tom 84 bet. 1992y.
10. «Xalq so'zi» gazetasi 1996 yil 25-oktyabr.
11. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi 1999 yil 17 avgust.
12. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi 1999yil 17-dekabr.
13. Hoshimov O'tkir. «Tanlangan asarlar» Toshkent. 1990 yil.
14. Hammualliflar XX asr o'zbek adabiyot tarixi. Toshkent «O'qituvchi» 1999 yil.
15. XX asr o'zbek adabiyoti.11-sinf uchun darslik.Toshkent,1995
16. Naumov L.B. Uchebnie igri v meditsine T. 1986
17. Abdurahmonov M “O'zbek tili o'qitish metodikasi” Samarqand. 1968
18. Internet materiallari. [www. google. uz](http://www.google.uz).
19. Internet materiallari. [www. yandex. uz](http://www.yandex.uz).
20. Ziyonet.uz Kutubxona.